⁹ Гиг Дж. Ван. Прткладная общая теория системы :пер. с. Англ. Кн.2.- М. Мир, 1981.- 733 с.

Xizmat ko'rsatish samaradorligini optimal darajada oshirish eng birinchi o'rinda rahbar oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Samaradorlikka ta'sir qiluvchi muhim omillarni yaxshilab o'rganib chiqish, uning ta'sirlarini tahlil qilish rahbarning boshqaruv qarorlaridan oqilona foydalanishining natijasida namoyon bo'ladigan iqtisodiy holatlar jamlanmasidir.

Rahbarning xizmatlar faoliyati samaradorligini to'g'ri tahlil qilishi va bu vazifani yechish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog'liq jarayonlarda aks etadi.

➤ Bozor talablariga javob beruvchi, iste'molchilarning talab va istaklarini maksimal darajada qondirish, yuqori sifatli xizmat ko'rsatishda eng kam xarajatlar miqdori bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi optimal xizmat ko'rsatish jarayonini tanlash.

➤ Iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlarni ko'rsatish va sotish va natijada yuqori daromad olishni maqsad qilish.

➤ Aylanma vositalardan oqilona foydalanish ularni tejash imkonini yaratuvchi optimal xizmat ko'rsatish zahiralarni keng joriy qilish.

➤ Xo'jalik korxonalar unumdorligini ko'paytirish va ularning sifatini oshirish vaqt va zamon talabiga xos shaklda namoyon qilish

➤ Xodimlar malakasini oshirish, ukarni qayta tayyorlash hamda olib borilayotgan boshqaruv tizimida xodimlarni rag'batlantirish va ularga ijtimoiy va iqtisodiy motivatsiya berish.

Yuqorida aytib o'tilgan har bir faoliyat turlarini turli shakl va ko'rinishlar yordamida amaliyotga tadbiiq etish, xizmat ko'rsatish samaradorligi asosida yotuvchi hujjalar va resurlarning o'zaro aloqasini to'g'ri tashkil qilgan holda amalga oshirish rahbar oldida turgan majburiyat va vazifalardan eng muhimlari hisoblanadi.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotimiz davomida bizning oldimizda nafaqat samaradorlik tushunchasini tahlil qilish uning ma'no mohiyatini anglash balki, keng jabhada "ijtimoiy- iqtisodiy samaradorlik" tushunchasining ham tahlilini ko'rib chiqish va mohiyatini aniqlashtirish kabi asosiy vazifalardan biri sifatida oldimizda turibdi.

Hozirgi davrda zamonaviy ilmiy adabiyotlarda, ilmiy asarlarda samaradorlikni oshirish , uni baholash borasida turli tuman yondashuvlar, tamoyillar va ilmiy tadqiqot ishlariga duch kelamiz.

Turli xil normativ va rejalashtirish hujjatlarida belgilangan maqsadlarning bajarilishini ko'rsatuvchi maqsadli yondashuvlarni ajratib ko'rsatish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan bir qatorda mavjud resurslardan foydalanish aks ettiruvchi tizim- resurs yondashuvini ham alohida ta'kidlashimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

R. Stirz samaradorlikni baholash borasida ko'rsatkichlarni kumulyativ tahlil qilish va baholashni o'z ichiga oluvchi integrative

yondashuvdan foydalanishni taklif qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, bir qator zamonaviy g'arb tadqiqotchilari xizmatlar bozori ishtirokchilari talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan samaradorlikni baholashga urg'u beradilar.

M.Dj. Ueyts qo'shilgan qiymatning integratsiyalashgan ko'rsatkichi orqali subyekt samaradorligini miqdoriy va sifat jihatidan baholashni taklif qilgan.¹⁰ Ko'rsatkichlar turlicha bo'lsada, ammo ular ayni chog'da, xizmat ko'rsatish va servis sohasiga ishtirok etadigan va jalb qilingan bozor qatnashchilarining o'zaro hamkorligi oqibatida sinergetik ta'sir samarasiga ega bo'ladi.

Xizmatlarning ijtimoiy- iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tarkibiga ularning pirovard iste'molchilariga ham, maxsulot ishlab chiqarishning oraliq bosqichida xizmatlarni iste'mol qiluvchi korxonalar va tashkilotlarga ham taqdim etish sifati kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Ilmiy tadqiqotchi olimlarimizdan o'z tadqiqotlarida davomida M. Q. Pardayev va B.A. Abdulkarimovlar iqtisodiy samaradorlikni ishlab chiqarish va uni takomillashtirish jarayonida yaratilgan iqtisodiy resurslar, iqtisodiy ne'matlar hajmi bilan ifodalashni taklif etadilar. Olimlarimiz fikricha, iqtisodiy samaradorlikning asosi xarajatlar bilan erishilgan iqtisodiy ne'matlar munosabati deb baholashadi. Ya'ni ishlab chiqarish jarayoni bo'ladimi, xizmat va servis ko'rsatish jarayoni bo'ladimi albatta ularga ma'lum miqdorda xarajat qilinadi va uning evaziga esa daromad olish rejalashtiriladi va iste'mol qiymati yaratiladi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy samaradorlik xarajat bilan olingan natijani taqqoslash orqali ifodalanadigan iqtisodiy –ijtimoiy ko'rsatkich hisoblanadi.¹¹

Avval ta'kidlanganidek, ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini baholashda sifatni miqdoriy baholash usullariga mansub bo'lgan kvalimetriya usullari o'qullaniladi. Barcha ko'rsatkichlar to'plami bo'yicha xizmatlar sifatini baholash, turli xil baholar ko'rsatkichlari mavjudligi sababidan tadqiqot davomida ko'p vaqt talab qilishi mumkin va bundan tashqari kutilayotgan natijani bermay tadqiqot ishiga ma'lum darajada nomutanosibliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Albatta baholashni amalga oshirishda iste'molchilarning yoshi, qolaversa jinsi, ularning ijtimoiy holati turlicha bo'lishi mumkin. Baholashda mana shu ko'rsatkichlarni e'tiborga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy sohaning aniq yo'nalishlari uchun baholanuvchi ko'rsatkichlar sonini aniqlashtirib va maqbullashtirib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xizmatlar bozorida servis sifatining rivojlanishi, shu hududda istiqomad qilayotgan aholi turmush darajasining yaxshilanishiga olib kelmog'i darkor. Buning uchun xizmatlar bozorining ehtiyojlarini aniqlab, aholi uchun ustuvor yo'nalish va vazifalarni belgilab olish talab qilinadi. Bular quyidagi ma'lumotlarda aks etgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikka erishishda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar.



Xizmat sifati va uning iqtisodiy samaradorligini baholash, korxonada foydalanib kelinayotgan iqtisodiy resurslar turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan ular o'lchanishi mumkin. Masalan, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va maxsulotning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari yordamida quyidagi formula asosida baholash mumkin.

$$PT = \frac{Q}{I}$$

Bu yerda:

PT- mehnat unumdorligi;

Q- maxsulot hajmi qiymat ko'rinishida

I- ishlovchilar (ishchilar) soni.

¹⁰ Economic development quarterly, February 2000, vol. 14, no 3, pp.35-50.

¹¹ Abdulkarimov B.A., Jabriyev A.N., Pardayev M.Q., va boshq. Korxonalar iqtisodiyoti. T.: "Fan", 2005.

Maxsulotning mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo'lib, sarflagan mehnat hajmining ishlab chiqarilgan maxsulot hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$T = \frac{I}{Q}$$

Mehnat qurollari (asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarilayotgan maxsulotning fond sig'imi va fond qaytishi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytishi korxonada asosiy fondlarining bir birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan maxsulotni bildirsa, fond sig'imi esa fond qaytishiga teskari kattalik bo'lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytishi (f_s) va fond sig'imi (f_e) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$f_s = \frac{Q}{F}$$

Bu yerda:

Q - maxsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F - asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$f_e = \frac{F}{Q}$$

Fond qaytishi qanchalik yuqori va fond sig'imi qanchalik past bo'lsa ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Mashina va uskunalardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish va bundan tashqari xodimlar bilim va malakasini rivojlantirish fond qaytishini ko'paytirishning muhim zahirasi hisoblanadi.

Mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi, maxsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xom-ashyo material, yoqilg'i energetika va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan maxsulot hajmiga nisbati bilan aniqlaymiz. Uning formulasi quyidagicha:

$$m = \frac{M}{Q}$$

Bu yerda:

m- xizmat ko'rsatishda material sig'imi;

M- xizmat ko'rsatish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori pul ko'rinishida

Q- ko'rsatilgan xizmat hajmi, qiymat ko'rinishida.

Xizmatning material sig'imi qanchalik past bo'lsa, xizmat ko'rsatish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq xizmat ko'rsatish material sig'imini kamaytirish, uning sifatini pasaytirish iste'molchilarga sifatli maxsulot taqdim etish, texnologik norma va qoidalarni buzish orqali bunday jarayonlarni amalga oshirish mumkin emas. Material sig'imini bu tarzda kamaytirish iqtisodiy jinoyat hisoblanadi va qonuniy jazoga ham tortiladi.

Har qanday iqtisodiy jarayonlar tezlik bilan rivojlanayotgan jamiyatda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, korxonada faoliyatini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligini va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradigan iqtisodiy ko'rsatkich sanaladi.

Har qanday ish jarayonida, jumladan korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmashligini, obrazli qilib aytganda ovoragarchilik, vaqt yo'qotish, isrofgarchilik, kuch va resurslarni yo'qotish bilan baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pardayev M. Q. Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. T. Iqtisod moliya. 2011.- 172b.

2. Abulqosimov X va boshqalar. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. - T.: Akademiya, 2005.-52 b.

3. Котлер. Ф. Основы маркетинга. Москва: Прогресс, 1993

4. Ochilov.I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi aftoreferati SamISI- 2010y.

5. Q.J. Mirzayev, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, G'.S.Mustafoyev, E.S.Fayziyev "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" darslik 2022y.

Fan – texnika taraqqiyoti korxonalarining xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Mazkur omillardan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin.

✓ Xizmat ko'rsatishda mehnatni avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mehanizatsiyalashtirish;

✓ Asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish;

✓ Progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan oqilona foydalanish;

✓ Servis bilan bog'liq xom-ashyo va materiallarning innovatsion turlarini yaratish va ularni joriy qilish;

✓ Xizmat ko'rsatishni sifatli tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitlarda chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so'nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotni barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish lozim. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyatga ega. Masalan, yaponiya xitoy firmalarini misol qilsak, ularni har bir korxonalarida sifat va ijodiy guruhlar tashkil qilingan. Bundan tashqari fan texnika taraqqiyoti bilan bog'liq universitetlar, zamonaviy laboratoriya markazlari muntazam tashkilot bilan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yan va shuning natijasida hozirgi kunda u yerda robotlar ham innovatsion texnika va texnologiyalarning yanada murakkab turlari yaratilmoqda va bu sohada yetakchi o'rinlarda turishi ham bejiz emas.

Xulosa va takliflar. Korxonada faoliyatining samarali bo'lishida xizmat ko'rsatishda intensivlashtirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlariga mos tarzda ishlab chiqish, korxonaning xizmat ko'rsatish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rin egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Albatta yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashini talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha iqtisodiy jarayonlarda va faoliyatlarda resurslardan oqilona tejamkorlikka rioya qilgan holda foydalanuvchi, zamonaviy ilm- fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi har qanday tashkilot bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda ham muvaffaqiyatga erishishi, eng raqobatbardosh korxonalar safida bo'lishi va yuqori darajada unumdorlikka erishishini taminlaydi.

Xizmatlar sifatini oshirishda, uning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishda boshqaruv funksiyasini o'rni va ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Rahbarning boshqaruv qobiliyati va ilmi shakllantirilishi kerak, va bundan tashqari xodimlarning malakasi va bilim salohiyatiga alohida e'tibor berish taklif qilinadi. Innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, xorij tajribasini o'rganish, sohaga islohol qilish, har bir xizmat sifatini maksimal darajaga ko'tarish va iste'molchilar talabini o'rganishda marketing metodlaridan keng qamrovli darajada foydalanish taklif qilinadi. Mana shu jarayonlarni e'tiborga olib samaradorlikni oshirish har bir rahbar oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

6. Safarov Farhod Anvarovich "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligini oshirish". Iqtisod fanlari nomzodi aftoreferati SamISI – 2023y.

7. Ahmedjanov Aziz Rustamovich "Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish". Sam2021y.

8. Pardayev M.Q. Xizmatlarning ijtimoiy- iqtisodiy tabiati va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari (Nazariy jihatlari)// Servis – Samarqand. – 2009.- 34-46 bet.



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI

Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi

Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi
nargizayormonqulova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 13

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.951>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Yashil iqtisodiyot, Yashil loyihalar, Yashil moliyalashtirish, Yashil energetika, "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish strategiyasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va indikatorlari tahlil etilgan. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirish, "yashil energetika"ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ustuvor yo'nalishlari va xorij tajribasi, modellari, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlarining mazmuni bayon etilgan.

Kirish. O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'yamokda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalari va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxonaga gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.¹

Adabiyotlar tahlili. Vashalova T. V. ning "Экологические основы природопользования. Устойчивое развитие" nomli qo'llanmasida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishni zarurligi;
- uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog'liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;
- katta mul'tiplikativ samaraga ega bo'lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi yashil innovatsiyalarni qo'llash;
- past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonida uglevodorodga bog'liqlikni qisqartirish.

Yuqorida qayd etilganidek, jahonda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish tashabbusi 2008 yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo'lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi:

- ekologiya bilan bog'liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylantirish;
- "yashil" ishchi o'rinlarni yaratish hisobidan aholi bandligini ta'minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmidan foydalanish.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Ye.R. Lindal va J.R. Xikslar asos solishgan (D. B. Smirnov (2015)). Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o'zaro o'rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi.

Atrof muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida "yashil iqtisodiyot" tushunchasi shakllana boshlagan. Ilk bor "yashil iqtisodiyot" atamasi 1989 yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasini" deb atalgan, hukumat uchun yozilgan hisobotda qo'llanilgan. (Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp).

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda "yashil iqtisodiyot"-bu insonlar faravonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan. (Навстречу "зеленой" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17)

Iqtisodiy fanlar doktori, professor M. Pardayevning fikricha, "Yashil iqtisodiyot" bu iqtisodiy tizim hisoblanib, uning bosh maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgandir. (<https://zamews.uz/ma'lumotlari>)

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umum qabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, "yashil iqtisodiyot" nazariyasi, tamoyillari yoki "yashil iqtisodiyot" siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477son Qarori

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari
(Vaxabov, Xajibakiev va boshqalar; 2020).

BOSQICHLAR	YILLAR	ASOSIY G'OYALAR
I	1950-1960	Iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta'sirini anglab yetish
II	1960-1970	Inson uchun qulay atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlab qolish maqsadida tejamkor (ratsional) iqtisodiyotni shakllantirish
III	1980-1990	Iqtisodiy o'sish va sanoat rivojlanishining ekologik jihatdan moslashishi iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi
IV	2000-2010	“Erkin bozor”ning biosfera resurslarini saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli davrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda o'z-o'zini tartibga solishga qodirmasligi.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda jalb etish zarur bo'ladi. (Vaxabov, Xajibakiev va boshqalar; 2020)

Metodologiya. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Mavzuni yoritishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot prinsiplari asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash to'g'risida mamlakatimiz va chet el olimlari, tadqiqotchilari tomonidan yozilgan adabiyotlar, bundan tashqari statistik ma'lumotlar nazariy jihatdan tahlil qilindi va taqqoslandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi, Xalqaro Intellektual Mulk Tashkilotlarining rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar yordamida tadqiqot mavzusi amaliy jihatdan yoritib berildi.


Natijalar qismi. XX asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o'zgarib ketdi. 1900 yilda dunyo aholisi 1,6 mlrd. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda ushbu ko'rsatkich 6 mlrd. kishidan oshdi, 2017 yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 7,6 mlrd. kishini tashkil etmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi jahon bo'yicha deyarli ikki marta oshib, kambag'allik darajasi 3 martadan ko'proqqa kamaydi. Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta'sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o'sishi dunyo aholisi sonining jadal sur'atlarda ortishiga sabab bo'ldi. Fantexnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini ta'minlab berdi. Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3,6 martaga o'sgani holda, dunyo yalpi ichki

mahsuloti miqdori 18 martadan ko'proqqa ortgan. Tahlillar ko'rsatishicha, dunyo aholisining ko'payishi va iqtisodiy o'sishning muntazam ravishda atrof muhitga bo'lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So'ngi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000 yilda 1900 yilga nisbatan) oshdi, tropik o'rmonlarning yo'qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,5 martaga ko'paydi². Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o'zgarishlari o'rta muddatli istiqbolida jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shu sababli, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanilayotgan rag'batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni yanada faollashadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo'lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo'lib, 1972 yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro va milliy amaliyotda 2012 yilda UNEP boshqaruv kengashi “Yashil iqtisodiyot” kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “yashil iqtisodiyot”ga o'tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan:



1-rasm. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish mamlakatlardan yuqorida qayd etilganidek muayyan tamoyillarga asoslanishi, strategiya yoki dasturlar doirasida maqsadli siyosat yuritishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot” doirasida amalga oshirilayotgan siyosat o'z ta'sir dastaklariga ega

bo'lishi zarur. Jahon amaliyotida yashil iqtisodiy siyosat doirasida qo'llanilayotgan dastaklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: ma'muriy; iqtisodiy; axborot.

² UNEP. (2015). Publication UNEP. United Nations Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>



2-rasm. Yashil iqtisodiy siyosat darstaklari

Nazariy jihatdan iqtisodiy dastaklarni qo'llash yashil iqtisodiyot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish, ushbu maqsadga erishish yo'lida amalga oshirilgan umumiy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Bu holat iqtisodiy dastaklar qatnashchilar uchun qarorlar qabul qilishda me'yoriy dastaklarga nisbatan ko'proq imkoniyatlar yaratib berishini anglatadi. Jumladan, texnologik andozalar (standartlar) qo'llanilganda tartibga solishdagi ustunlik faqat tartibga soluvchi muassasa tomonida bo'ladi. Bunda tartibga soluvchi kompaniyalarga atrof-muhitga zarar keltiruvchi chiqindilarni qancha chiqarish mumkinligi va ushbu ko'rsatkichga erishishda qanday texnologiyalardan foydalanish zarurligi to'g'risida xabar beradi. Natijada kompaniyalarning ushbu masala bo'yicha qarorlar qabul qilishdagi faoliyati cheklab qo'yiladi. Amalda tartibga soluvchi muassasa kompaniyalarning atrof-muhit muhofazasi uchun mas'uliyati darajasini ushbu tadbirlar qiymatidan qat'iy nazar bixillashtirib qo'yadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tarmog'ini yashillashtirish "yashil iqtisodiyot" ning axborot resurslaridan biri hisoblanadi. "Yashil AKT" deyilganda kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalaridan foydalanishda ekologiyaga minimal ta'sir etish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida maksimal darajada ijobiy samaraga erishish uchun texnologik qarorlar qabul qilish tushuniladi. Ushbu texnologik qarorlarga energiya iste'molini qisqartirish, AKTning xizmat muddatini uzaytirish, kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalarini xavfsiz utilashirish, ulardan ikkilamchi foydalanish, omborlar va ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari faoliyatini ta'minlash uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va boshqalarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qarorda belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri "Yashil iqtisodiyot"ni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning ustuvor sohalardan biri "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini ta'lim va fanga integratsiya qilishga bag'ishlangan:

- "yashil" iqtisodiyot asoslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, "sof" transportni rivojlantirish, energiya tejash va boshqa masalalarni e'tiborga olgan holda oliy va o'rta maxsus ta'limning tegishli yo'nalishlari o'quv dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, umumiy o'rta ta'limning tegishli dasturlariga "yashil" iqtisodiyot asoslari bo'yicha mavzular kiritish;

- oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o'rta ta'lim uchun tegishli o'quv adabiyotlarini (yo'nalishlar bo'yicha) tayyorlash yoki qayta nashr etish jarayonida ularga "yashil" iqtisodiyot asoslari bo'yicha mavzular kiritish;

- pedagog va ilmiy xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga "yashil" iqtisodiyot asoslari, jumladan, "Yashil texnologiyalar", "Yashil mezonlarni hisobga olgan holda ekologik me'yorlashtirish asoslari", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalari", "Energiya tejamkorligi va energiya samaradorligi muammolari" mavzularini joriy etish;

- "yashil" texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash.

"Yashil iqtisodiyot" sohasida turli tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanuvchi xususiy kompaniyalar "yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilishgan. Jumladan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxassislari "yashil moliya" lar "yashil investitsiyalar" bilan bir qatorda qo'llaniladi, ammo amaliyotda "yashil moliyalashtirish" investitsiyalarga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatiladi, deb hisoblashadi. Pricewaterhouse

Coopers Consultants konsalting kompaniyasi mutaxassislari tomonidan berilgan ta'rif esa "yashil moliyalashtirish"ni bank sektori nuqtai nazaridan tavsiflashga asoslanadi. Ularning fikricha, bank sohasi uchun "yashil moliyalashtirish" ekologik omillarni hisobga oluvchi moliyaviy mahsulot hisoblanadi va ushbu tamoyilga kredit berish jarayonidan boshlab to kredit yopilish oralig'idagi barcha jarayonlarda amal qilinadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari esa "yashil moliyalashtirish – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy qo'yilmalar, loyihalar va investitsiyalarni ifodalovchi keng tushuncha bo'lib, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirishni nazarda tutadi", deb hisoblashadi. Ularning fikricha "yashil moliyalashtirish" atrof-muhitga sanoat chiqindilarini chiqarish hajmini qisqartirish, suv resurslari ifloslanishining oldini olish va bioxilma-xillikni saqlab qolishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish bilan birgalikda iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va unga moslashish jarayonlariga sarflanayotgan investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy adabiyotdagi ta'riflarni quyidagicha guruhlash mumkin: birinchi guruhga xos umumiy jihat shundaki, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq texnologik jarayonlar, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishning keng qamrovli usullari "yashil" moliya sifatida talqin etiladi, ikkinchi guruh ta'riflarda esa "yashil moliya" ekologik tarkibiy elementga ega bo'lgan moliyaviy mahsulotlar (dastaklar) va xizmatlar (kreditlar, obligatsiyalar, aktsiyalar va boshqalar) sifatida tushuntiriladi.

Demak, "yashil moliyalashtirish" atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga oluvchi va ekologik barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash va kreditlashning barcha shakllarini qamrab oladi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, "yashil" iqtisodiyotning iqtisodiy mexanizmlari barqaror rivojlanishni ta'minlashda o'z o'rniga ega. Milliy iqtisodiyotni "yashillashtirish" tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirishga, tarkibini diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozoridagi raqobatchiligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, shuningdek tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida energiya xavfsizligiga, bo'sh ish o'rinlarini yaratilishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va mamlakat rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi so'zlarni muxtasar qilgan holda, chuqur qayta o'ylab ishlab chiqilgan takliflar quyidagilardan iborat:

- 1) "yashil" energiyadan keng foydalanish bo'yicha hukumat va hududiy hokimliklar qarorlarini qabul qilish;
- 2) aholi va davlat energiya iste'molida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- 3) "yashil" uy va binolarni qurish bo'yicha amaliy taklif va ishlanmalar ishlab chiqish (samarali energiya va suv bilan ta'minlangan "yashil" binolar, "yashil" materiallardan qurilish ishlarida foydalanish va shu kabilar);
- 4) "yashil" texnologiyalarni yaratish va sotish bozorini rivojlantirish lozim;

5) transportini rejalashtirish va kengaytirish, muqobil yoqilg'idan foydalanish, elektr transport vositalari va boshqa "toza" transport vositalaridan keng foydalanish, avtomobillarni muqobil ishlatish uchun zarur bo'ladigan maxsus dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

6) chiqindilarni qayta ishlashni takomillashtirish (qayta ishlash, to'xtab qolgan sanoat binolarini tiklash, "toza" o'rash materiallaridan foydalanish va shu kabilar).

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi PQ-4477-son Qarori. <https://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi.

2. Навстречу "зеленой" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.

3. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2015. – 176 p.

4. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Darslik. A.E. Ergashev va b. – T.: Baktria press, 2016.-296 b.

5. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X, "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy

Xulosa qilib aytganda, kelajakda iqtisodiyot taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu yo'nalishda esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining yangi qarori asosida bu borada boshlangan ishlar miqyoslari yanada kengayadi, samaradorligi esa ortaveradi.

jihtlari. Ilmiy elektron jurnal. XXI asr: fan va ta'lim masalalari. 2017 y.

6. Jo'rayev T.T., Jumanov D "O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari" nomli ilmiy maqola. Manba: "Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-T.: "Universitet". 2018. 239 b. -20 b.

7. Yormonqulova, N. (2024). IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109–112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>



OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Adizov Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti reja-moliya bo'limi boshlig'i (Mustaqil izlanuvchi)

adizov.b@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 14

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.952>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

Moliyaviy barqarorlik, byudjet, moliyalashtirish, takomillashtirish, iqtisodiy taraqqiyot, inovatsion shakllari, metodlar, autorsing, struktura, aktsiyalashtir

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri oliy ta'lim bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Bunga erishish oliy ta'lim bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtira borib, raqobatbardosh, malakali ishchi kuchi va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqaruvchi mutaxassislarni shakllantirish va takror hosil qilish bilan bog'liq. Maqolada oliy ta'lim muassasalarining o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgandan keyingi moliyaviy holati va uning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilingan

Kirish. Hozirgi davrda inson kapitaliga, inson mehnati sifatini oshirishga qilinadigan xarajatlar iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlari samaradorligi oshishi, ularni bozor talablari negizida qayta qurish uchun asosiy omil hisoblanadi. Chunki inson kapitaliga kelajakda jamiyatning yanada yuqoriroq daromadlar manbasi va jamg'arilib boriladigan xazira sifatida qaralishi mumkin. Shu bois oliy ta'lim tizimi rivojlana borib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Ma'lumki, inson kapitali oliy ta'lim jarayonida aholi tomonidan bilimlar o'zlashtirilishi natijasida shakllanadi va qiymati oshib boradi. Inson kapitaliga investitsiyalar oliy ta'lim xizmatlari bozori orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri oliy ta'lim bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Bunga erishish oliy ta'lim bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtira borib, raqobatbardosh, malakali ishchi kuchi va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqaruvchi mutaxassislarni shakllantirish va takror hosil qilish bilan bog'liq. Haqiqatda ishchi kuchi mehnat bozorida talabgor bo'lishi uchun bilimga, muayyan mutaxassislikka, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, fikrimizcha, uning obyekti bo'lgan oliy ta'lim xizmatlarining mohiyati

va tuzilmasini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Chunki oliy ta'lim xizmatlari bozori ta'lim xizmatlarini ayirboshlash tizimidir. Aynan oliy ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish ta'lim xizmatlari bozori shakllanishi va rivojlanishining asosiy iqtisodiy sharti hisoblanadi.

Demak, "ta'lim ne'matlari" deganda, aslida bilimlar tushuniladi. Oliy ta'lim xizmatlari esa bilimlar va ko'nikmalarni iste'molchiga yetkazish bo'yicha faoliyatdir. Amaliy jihatdan mutaxassislik va kasblarning turlari, yo'nalishlari bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun oliy ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi va oliy ta'lim xizmatlari bozorida iste'molchiga taklif etiladi, iste'molchi esa o'z xohishiga ko'ra uni sotib oladi. Ushbu mulohazalarga asoslanganda oliy ta'lim xizmatlari obyekti asli bilimlar hisoblanadi. "Ta'lim ne'matlari", "o'quv dasturlari" asosini ma'lum hajmdagi bilimlar tashkil etadi, shunday ekan ular "bilim" tushunchasini ma'lum bir nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda talqin etish shakllari hisoblanadi. Fikrimizcha, aynan iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan bilimlar oliy ta'lim xizmatlari bozorining obyekti bo'lib, oliy ta'lim xizmatlari shaklida iste'molchiga yetkaziladi.

"Oliy ta'lim xizmatlari"ning tahlili ularni ma'lum mezonlar asosida turkumlashni talab etadi (1.1-jadval).

1.1 - jadval

Oliy ta'lim xizmatlarining turli mezonlar asosida turkumlanishi¹

Mezonlar	Oliy ta'lim xizmatlarining turlari
1.O'ziga xos ne'mat sifatida	1.1. Xususiy ne'mat 1.2. Ijtimoiy ne'mat
2.O'rmini bosish darajasi	2.1 O'zaro o'rmini bosuvchi xizmatlar 2.2. O'zaro to'ldiruvchi xizmatlar 2.3. Mustaqil xizmatlar
3.Iste'molchiga oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish	3.1. Pullik xizmatlar 3.2. Pulsiz xizmatlar

Xususan, oliy ta'lim xizmatlari o'ziga xos ne'mat sifatida xususiy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Agarda inson tomonidan iste'mol qilinib, bir vaqtning o'zida boshqa inson undan foydalana olmasa, bu holatda oliy ta'lim xizmatlari xususiy ne'mat sifatida o'ziga xoslik kasb etadi va raqobat tamoyillariga asoslanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim xizmatlarini xususiy ne'mat sifatida takror hosil qilish bozor munosabatlari asosida amalga oshiriladi. Agarda ne'mat inson tomonidan iste'mol qilinib, ayni paytida boshqa insonlar tomonidan ham

iste'mol qilinishi mumkin bo'lsa, unda oliy ta'lim xizmatlari ijtimoiy ne'mat hisoblanadi. Ijtimoiy ne'matlar o'ziga xos ham, raqobat obyekti ham emas.

Oliy ta'lim xizmatlarini o'rni bosish darajasiga qarab, bir-birining o'zaro o'rni bosuvchi, to'ldiruvchi va mustaqil shakllarga ajratish mumkin. O'zaro o'rni bosuvchi oliy ta'lim xizmatlariga talabning oshishi u bilan bog'liq xizmatning boshqa turiga talab kamayishiga, o'zaro to'ldiruvchi xizmatlarda esa biror-bir xizmatga

¹ Muallif ishlanmasi

talab ortishi boshqa xizmatlarga talab oshishiga olib keladi. Masalan, oliy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish texnikaga xizmat ko'rsatish xizmatlariga talabni o'stiradi. Mustaqil oliy ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj boshqa xizmatlar bilan bog'liq bo'lmaydi. Oliy ta'lim xizmatlari turlaridan oliy ta'lim tizimining xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirish va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rejalashtirish jarayonida foydalanish mumkin.

Oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning negizini tashkil etuvchi bilimlar hozirgi davrda barcha sohalar taraqqiyotida asosiy omilga aylanganligi bilan belgilanadi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanganligini alohida ta'kidlash lozim. Inson salohiyati harakatiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida aynan oliy ta'lim birinchi o'rinni egallaydi. Shu bois an'anaviy omillar, ya'ni tabiiy resurslar, ishchi kuchi va jismoniy kapitalga nisbatan inson kapitali ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ijtimoiy boylik oshishining asosiy omili aynan jamg'arilgan bilimlar hajmi va sifati ortishi hisoblanadi.

Bilimlarni ishlab chiqarish, qo'llash va tarqatish ko'proq ijtimoiy institutlar, oliy ta'lim tizimi va oliy ta'lim xizmatlari bozori rivojlanishiga bog'liqdir. Chunki turli axborotlarni bilimga aylantirish va qayta ishlash aynan oliy ta'lim tizimi va fan sohasida amalga oshiriladi. Shunday qilib, oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy, iqtisodiy mohiyati ular iqtisodiy o'sishda asosiy omil bo'lgan bilimlardan iboratligi, inson kapitalining jamg'arilishi aynan oliy ta'lim xizmatlari sotib olinishi natijasida ro'y berishi, hozirgi davrda uning ahamiyati beqiyosligi, jahon bozorida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil ekanligida namoyon bo'ladi.

Ta'lim xizmatlarini o'rinni bosish darajasiga qarab, bir-birining o'zaro o'rinni bosuvchi, to'ldiruvchi va mustaqil shakllarga ajratish mumkin. O'zaro o'rinni bosuvchi ta'lim xizmatlariga talabning oshishi u bilan bog'liq xizmatning boshqa turiga talab kamayishiga, o'zaro to'ldiruvchi xizmatlarda esa biror-bir xizmatga talab ortishi boshqa xizmatlarga talab oshishiga olib keladi. Masalan, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish texnikaga xizmat ko'rsatish xizmatlariga talabni o'stiradi. Mustaqil ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj boshqa xizmatlar bilan bog'liq bo'lmaydi. Ta'lim xizmatlari turlaridan ta'lim tizimining xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirish va ta'lim muassasalari faoliyatini rejalashtirish jarayonida foydalanish mumkin.


Bugungi kunda axborot texnologiyalar jahon miqosida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga keskin ta'sir o'tkazmoqda. O'zida "axborot", "ilmiy salohiyat", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "nou-xau" kabi tushunchalarni mujassamlagan oliy ta'lim birinchi o'ringa chiqmoqda. Mamlakatning iqtisodiy o'sishiga moliyaviy kapital, mehnat sarflari, yer kabi omillarga nisbatan ta'limning qo'shadigan ulushi yuqori bo'lmoqda va u milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Jahondagi globalizatsiya jarayonlarining rivojlanishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish kabi masalalar tahlili shuni

isbotlamodaki, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy o'rinni oliy ta'lim tizimida birinchi navbatda ta'limni ishlab chiqaruvchi va uni keng xalq ommasiga targ'ib qiluvchi oliy ta'lim muassasalari egallaydi. Bu faoliyat turi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda, chunki oliy ta'lim taraqqiyoti juda tez jadallashmoqda va unda ilgari jamg'arilgan va to'plangan bilim juda tez ma'naviy eskirmoqda. Bu milliy iqtisodiyotni bugungi kundagi rivojlanish darajasiga, uning talablariga mos ravishda mavjud oliy ta'lim tizimi muassasalarida modernizatsiya ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bu mavjud ilmiy salohiyatdan samarali foydalanib oliy ta'lim muassasasini o'quv-tarbiya jarayonida ijodiy - innovatsion rivojlanish yo'nalishida taraqqiy etishni ta'lab etadi.

Umuman birinchi navbatda "innovatsiya", innovatsion faoliyat" tushunchalarining mohiyatini aniqlab olaylik. «Yangilik» va «innovatsiya» tushunchalarini chegaralash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yangilik bu – fundamental amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar yoki biron-bir soha samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba ishlarining rasmiylashtirilgan natijasidir. Yangilik: kashfiyotlar; ixtirolar; patentlar; mel belgilari; ilg'orlar takliflari; yangi yoki takomillashgan mahsulot, texnologiya, nou-xou; ilmiy yondashuvlar yoki tamoyillar hujjat (andoza, tavsiya, usul, yo'riqnoma va boshqalar); marketing tadqiqotlari, natijalari va boshqalar. Yangilikning ishlashiga sarmoya qo'yish-innovatsion faoliyatning bir qismidir. Asosiy yangilikni joriy qilish, yangilikni innovatsiya shakliga aylantirish, ya'ni innovatsiya faoliyatini tugallash va ijobiy natija olish, so'ng innovatsiyaga kirishishni davom ettirish. Yangilikni ishlash uchun marketing tadqiqotlarini, ilmiy tadqiqot, tajriba konstruktorlik ishlarini ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorlash, ishlab chiqarish va natijalarni rasmiylashtirishni olib berish zarur.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya bu –ixtiro, yangi texnologik mahsulot, xizmat shaklidagi yoki tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy xarakterdagi, tayyor, hal etilgan, xo'jalik subyektida foydalanilayotgan, uning raqobatbardoshligi o'sishini ta'minlaydigan, yakuniy faoliyat natijasidir. Innovatsion faoliyat – bu ilmiy tadqiqotlar, texnik ixtirolar yaratish orqali, korxonani uning moliyasini marketing instrumentlaridan foydalangan holda samarali boshqarish va yakuniy natijada xo'jalikning raqobatbardoshligi o'sishini ta'minlash maqsadida uning iqtisodiy faoliyatiga joriy etishga olib keladigan, innovatsion yangilikni yaratishga yo'naltirilgan jarayondir. Innovatsion faoliyatning kirish qismida uning muhim elementi bo'lgan kadrlar, moliyaviy, axborot, moddiy-texnik ko'rinishdagi resurslar va salohiyatli kadrlar turadi. Loyihaning yakuniy chiqish qismida yangi texnologiya, mahsulot, xizmat, yangi tashkiliy va boshqaruv shaklida yoki intellektual mulk shaklidagi patentlar, litsenziyalar, nou-xau va alohidalashgan vositalar ko'rinishidagi innovatsiya turadi. Bu bilan xo'jalik subyekti innovatsion faoliyat natijasida bozorda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun raqobat ustunligiga ega bo'ladi, o'z salohiyatini oshiradi va ilmiy kadrlarni rivojlantiradi. OTM subyektlarining innovatsion faoliyati sxemasi 1.2-rasmda keltirilgan.



1.2-rasm. OTM tizimida innovatsion faoliyatning tashkil etilishi.

Innovatsiya bugungi kunda oliy ta'lim muassasini rivojlantirishda asosiy ustivor omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi zamon OTMning innovatsion rivojlanishi – bu obyektiv belgilangan, ma'lum maqsadga qaratilgan, bosqichma-bosqich amalga oshuvchi, vaqt mobaynida to'xtatib bo'lmaydigan uni bir holatdan ikkinchi yangi sifat

elementlarini, xususiyatlarni, belgilarni maqsadga muvofiq joriy qilish orqali amalga oshiriladi. OTMning innovatsion rivojlanishi – bu tizimli sifat o'zgarishlari jarayoni bo'lib, uning optimal va barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartlari va mazmuni bo'lib innovatsiyalar va yangiliklar xizmat qiladi.

Xulosa: Farg'ona vodiysining murakkab geomorfologiyasi va dinamik cho'kindi jarayonlari bilan ajralib turadigan qumli landshaftlari ham tabiiy kuchlar, ham inson faoliyati ta'sirida keng shakllangan. Sedimentologik tahlil, masofadan zondlash, paleoklimatik rekonstruksiya va bashoratli modellashtirishni o'zida mujassam etgan ushbu keng qamrovli tadqiqot ushbu noyob landshaftlarning o'tmishi, hozirgi va kelajak dinamikasi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi. Asosiy topilmalar eol va oqim jarayonlarining vodiyni cho'kindi tarkibiga qo'shgan muhim hissasini ta'kidlaydi, bimodal don hajmi taqsimoti aralash cho'kindi kelib chiqishiga ishora qiladi. Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlari va GIS tahlillari gumbaz morfologiyasining fazoviy o'zgaruvchanligi va vaqtinchalik tendentsiyalarini aniqladi, bu esa so'nggi o'n yilliklarda faol qumtepa hududlari va migratsiya sur'atlarining sezilarli o'sishini ko'rsatdi. Paleoklimatik ma'lumotlar bu o'zgarishlarni kengroq tarixiy iqlim o'zgarishlari doirasida kontekstualashtirib, aridifikatsiyaning tsiklik xususiyatini va uning landshaft evolyutsiyasiga ta'sirini ta'kidlaydi.

Bashoratli modellar 2050 yilga kelib, kutilayotgan iqlim o'zgarishlari, jumladan haroratning ko'tarilishi va yog'ingarchilikning o'zgarishi bilan bog'liq holda qumtepalarning harakatchanligi sezilarli darajada oshishini prognoz qilmoqda. Ushbu prognozlar iqlim o'zgarishi va inson faoliyatining ta'sirini yumshatish uchun barqaror erni boshqarish amaliyotining shoshilinch zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa o'rni: aytish mumkinki, Farg'ona vodiysining qumli landshaftlari chorahada, iqlim o'zgarishi va antropogen ta'sirlardan kelib chiqadigan jiddiy tahdidlarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqotda keltirilgan batafsil tushunchalarga asoslanib, biz ushbu landshaftlarning ekologik yaxlitligini saqlab qolish va ularning barqaror kelajagini ta'minlash uchun maqsadli strategiyalarni ishlab chiqishimiz mumkin.

4. Akramov D. "Masofadan zondlash va GIS ilovalari" – Toshkent, "Innovatsiya" nashriyoti, 2022. – 450 b.
5. Tursunov R. "Gidrologiya va suv resurslari" – Toshkent, "Atrof-muhit" nashriyoti, 2015. – 389 b.
6. Ismoilov B. "Tuproqshunoslik va agrokimyo" – Toshkent, "Qishloq xo'jaligi" nashriyoti, 2012. – 320 b.



TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI TASHKILLASHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Ashurova Gulru Oxunovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi,

E-mail: ashurovagulru1@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 17

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.955>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

Interfaol o'quv usullari, o'quv faoliyatini o'rganish, o'quvchilar munosabatlari, o'quv faoliyatini tashkillash, interfaol o'quv usullari ta'siri.

Ushbu maqola talabalar o'quv faoliyatini o'rganish va o'quv jarayonini yanada samarali qilish uchun interfaol metodlardan qanday foydalanishni tahlil qiladi. Maqola o'z ichiga o'quv jarayonining tashkil etilishi, interfaol metodlar tavsiflanishi va ularning o'quvchilar ustida yaratishi mumkin bo'lgan ta'sirini o'z ichiga oladi. Interfaol metodlar masalalari, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy o'zaro munosabatlarning rivojlanishi va o'quv jarayonini mustahkamlashda qanday rolini o'rganish uchun tegishli ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan.

Kirish: Bugungi kunda globallashtirish zamonida, axborotlar oqimi miya po'stlog'imizdagi assotiativ bo'g'lanishlarni to'ldirayotgan bir paytda, yangiliklar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan davrda, bizning "shaxs"ni shakllantirib jamiyatga qo'shayotganimiz pedagogik mas'uliyatini yanada oshiradi. Ta'lim tizimini takomillashtirish, integratsiyalash, axborot texnologiyalariga tayanib bilish faoliyatini tashkil etish davr talabi bo'lmoqda. Hozirgi ta'lim texnologiyalari va ilg'or ta'lim metodlarining bilim olish, olingan bilimlarni tatbiq eta olish, o'quv faoliyatida ishlab chiqishda o'zni kattadir.

Ta'limdagi ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida ta'limni noan'anaviy usullarni yoshlarni bilish faoliyatini yanada jadallashtirish, ijodiy, abstract tafakkurini rivojlantirish, o'quvchilarda pedagogik kompetensiyani shakllantirish, pedagogning kommunikativ tomonini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim metodlaridan tegishli maqsadlarda samarali foydalanish uchun har bir metodning tarkibiy tuzilishi- usul, yo'l, bosqichlari, qismlari haqida va dars jarayonida qo'llash borasida ko'nikma va malakalarga ega bo'lish lozim.

Jumladan, psixologiya fanlarini o'qitishda ta'limni muammoli shakli katta ahamiyatga ega, zero ta'lim jarayonida berilayotgan yangi ma'lumotlar ta'lim oluvchidagi mavjud tasavvurlar va tajribalarga qanchalik tayangan bo'lsa, uni idrok etish, bilish jarayonlari orqali tahlil qilish, baholash faollashadi. Yani shuni aytilish mumkinki, muammoli o'qitish sub'ektiv faollikni talab etuvchi usullar orqali ta'limni tashkil etishni yuqori samaradorlikka olib keladi.

Adabiyotlar tahlili: O'quv faoliyatida interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar o'qitishning an'anaviy usullariga qaraganda ko'proq natijalar beradi, chunki ular talabalarni faol ishtirok etishga, o'rganish jarayonida mustaqil fikrlashga va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi.

F.Qodirova va N.Xolmatovaning "Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni" (2021)¹ kitobida interfaol metodlar talabalarining bilim olish jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan. Ushbu metodlar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuchaytiradi va ta'limning samaradorligini oshiradi. Masalan, muammoli o'qitish, rolli o'yinlar va munozaralar talabalarni fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'zaro muloqot qilishga o'rgatadi.

M.Jalilovning "Muammoli o'qitish va uning afzalliklari" (2020)² kitobida interfaol metodlarning turli turlarini va ularning afzalliklarini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda, ayniqsa, muammoli o'qitish usuli alohida e'tirof etilgan. Bu metod talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda izlash va qo'llash imkoniyatini beradi. Jalilovning so'zlariga ko'ra, muammoli o'qitish talabalarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydi, shuningdek, ularga real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini beradi. M.Karimov va R.Abdukarimovning "Interfaol metodlar va ularning amaliy qo'llanilishi" (2019)³ kitobida interfaol

metodlarning ta'lim jarayonidagi amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Ularning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, guruh bo'lib ishlash, munozaralar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashadi, bu esa ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

R.O'rmonovning "Interfaol metodlarning talabalar fikrlash qobiliyatiga ta'siri" (2018)⁴ kitobida interfaol metodlarning talabalar fikrlash qobiliyatiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. U o'z tadqiqotida interfaol metodlar talabalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Jumladan, munozaralar va muammoli o'qitish usullari talabalarni yangi g'oyalarni kashf etishga, tanqidiy tahlil qilishga va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.

Metodologiya: Muammoli o'qitish usullaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish shaxs faolligini ta'minlovchi, o'ziga nisbatan talabchanlikni oshiruvchi, bevosita o'zini vaziyatni faol ishtirokchisi sifatida erkin idrok qilishga, mavjud nuqson va kamchiliklarni to'g'rilashga yordam beradi.

Bilish faoliyatlarini tashkil etishda muammoli ta'lim turlaridan ba'zilaridan seminar mashg'ulotlarini olib borishda qo'llash texnologiyasini ko'rsatib o'tamiz:

1. "Sinkveyn" usuli. Bu usulda axborotlarni lo'nda, qisqa bayon qilish, voqea, hodisa, jarayonni bir necha so'zlar vositasida ifodalanadi. Sinkveyn fransuzcha 5 degan ma'noni anglatadi. U quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi.
2. Ikkinchi qatorda 2 so'z bilan mavzu tavsiflanadi.
3. Uchinchi qatorda 3 so'z bilan ifodalanadi.
4. To'rtinchi qatorda mavzu 4 so'zli ibora bilan ifodalanadi.
5. Beshinchi qatorda mavzu mohiyatini takrorlovchi besh so'zdan iborat sinonimi beriladi.

Masalan, "Umumiy psixologiya"dagi "Xarakter" mavzusidan seminar mashg'ulotiga topshiriq bersak, quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Xulq.
2. Insonning madaniyati.
3. Odamlarga, o'z-o'ziga munosabat.
4. Atrof-muhitga, narsalarga munosabat.
5. Xarakter xislatlari, aksentuatsiyasi, temperamenti bilan bog'liqligi.

Shunday tarzda talabalar shu mavzuga oid terminlar orqali bilganlarini esga oladilar, tafakkur qiladilar, analiz-sintez jarayoni tezlashadi.

"Sinkveyn" usuli orqali mavzu, boblar bo'yicha tushunchalar shakllanadi, axborotlarni refleksiyalash, sintezlash, umumlashtirishga erishiladi.

¹ Qodirova, N., & Xolmatova, S. (2021). Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni.

² Jalilov, A. (2020). Muammoli o'qitish va uning afzalliklari.

³ Karimov, B., & Abdukarimova, D. (2019). Interfaol metodlar va ularning amaliy qo'llanilishi.

⁴ O'rmonov, M. (2018). Interfaol metodlarning talabalar fikrlash qobiliyatiga ta'siri.

2. **“FSMU” usuli.** Bu usul munozarali masalalarni hal etishda, amaliy mashg'lot yakunida ta'lim oluvchilarning o'quv mashg'ulotlarida qo'llanishi mumkin.

Natijalar: O'quv faoliyatini interfaol metodlar yordamida tashkil qilishning samaradorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

1. **O'quvchilar ishtiroki va qiziqishining oshishi:** Interfaol metodlar o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. An'anaviy darslarga nisbatan interfaol darslarda o'quvchilar faolroq ishtirok etib, muhokamalarda qatnashdilar va o'z fikrlarini bildirdilar. Bu ularning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam berdi.

2. **Matematik tushunchalarni o'zlashtirish darajasining ortishi:** Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarning matematik tushunchalarni tez va samarali o'zlashtirishiga olib keldi. O'quvchilar matematikaning asosiy tushunchalari va amallarini tezroq va puxtaroq egallashdi.

3. **Jamoaviy ish ko'nikmalarining rivojlanishi:** Interfaol metodlar, xususan, guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi usullar o'quvchilarning jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Ular birgalikda ishlashni, muammolarni birgalikda hal qilishni va jamoa a'zolari bilan samarali muloqot qilishni o'rgandilar.

4. **Tanqidiy va ijodiy fikrlashning kuchayishi:** Interfaol metodlar o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdi. O'quvchilar masalalarga turli yo'llar bilan yondashishni o'rgandilar va ijodiy fikrlashga undovchi vazifalarni bajarish orqali o'zlarining analitik qobiliyatlarini kuchaytirdilar.

5. **Texnologiyalardan samarali foydalanish:** Interfaol darslar doirasida zamonaviy texnologiyalardan, masalan, taqdimot dasturlari, interaktiv doskalar va onlayn resurslardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi. Bu esa ularning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi va o'zlashtirish darajasini yuqori saviyada ta'minladi.

6. **Baholash va tahlilning yaxshilanishi:** Interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini baholash yanada aniqroq va ob'ektivroq amalga oshirildi. Guruhli va individual topshiriqlar, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash usullari o'quvchilarning bilimlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

7. **Motivatsiyaning ortishi:** Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirdi. Ular darslarda faol ishtirok etish va yaxshi natijalarga erishish uchun ko'proq intilishdi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini va motivatsiyasini kuchaytirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu metodlar yordamida o'quvchilar darslarni yanada interaktiv, qiziqarli va samarali o'rganishlari mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.K.Shamshetova, R.N.Meliboyeva, X.E.Usmanov, I.O. Xaydarov -“Umumiy psixologiya”. T-2018
2. Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Ataboyeva, Z.Qurbonova-“Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya” T-2013
3. A.V. Petrovskiy- “Umumiy psixologiya”
4. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(1), 3-9.

Muhokama: Interfaol o'quv metodlari, jumladan, kooperativ o'rganish, birgalikda yechim qidiruv, va o'z-o'zini baholash tizimlari o'quv faoliyatini tashkillashda kritik rolni o'z ichiga oladi. Ular o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash, fikrlar almashish va maslahatlashish jarayonlarini samarali va produktiv qilish uchun ideal vositadir.

1. **Kooperativ o'rganishning ta'limning qulay va samarali usuli:** Kooperativ o'rganish, o'quvchilar uchun ma'lum mazmunlarni o'rganishda o'zaro maslahatlashish, fikrlar almashish va bir-biriga qanday yordam berishni o'rganish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

2. **O'z-o'zini baholash tizimi va o'quvchilar motivatsiyasi:** O'z-o'zini baholash tizimi, o'quv faoliyatini boshqarish va o'quvchilarning o'zlarining o'quv natijalarini mustahkamlash uchun yaxshi vosita bo'lib, ularni o'zlarini baholash, o'zlarining o'zgartirish va o'zlarini o'zlashtirish uchun maslahat bera oladi.

3. **Birgalikda yechim qidiruv va ijtimoiy yondashuvlar:** o'quvchilar o'rtasidagi birgalikda yechim qidiruv jarayoni, jamiyatda ishlashning ko'nikmasliklari bilan ta'minlash, ijtimoiy yondashuvlar va qo'llab-quvvatlashning qo'llaniladigan vositasi bo'lib, ularning ta'lim paytida o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda yordam beradi.

4. **Mustaqil fikrlash va fikrlashni rivojlantirish:** Interfaol o'quv usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularni ko'p yonalardan ko'rinishni, yechim topish va o'zlarining maslahatini berishga kuch beradi.

Interfaol o'quv metodlarini qo'llab-quvvatlash o'quv faoliyatini tashkillashda muhim bo'lib, o'quvchilarning o'zlarini o'zlashtirish, ijtimoiy yondashuvlar va o'quv jarayonini samarali boshqarish uchun yaxshi vosita bo'lib, ularning o'zlarini o'zlashtirishga qaratilgan ta'sirini o'rganishning muhimidir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bilish faoliyatini muammoli ta'lim orqali tashkil etish talabalarni erkin fikrlashga hamda o'z fikrini himoya qila olishga, boshqalar bilan ochiq holda bahslashishga, egallagan bilimlarini tahlil qila olishga, mantiqiy tafakkur yuritish bilan bilim va ko'nikmalarni shakllanishiga, tafakkur tezligini aniqlashga, kichik guruhlarda jamoa bo'lib ishlash malakasini egallashga, o'zaro bir-birini fikrini hurmat qilish hislarini shakllanishiga yordam beradi. Aynan yuqorida sanab o'tganimiz **“FSMU”**, **“Sinkveyn”**, **“Breynstorming”** usullari talabalarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, metodlar orqali tegishli masalalarga doir ijobiy va salbiy jihatlar, afzallik va kamchiliklar, foyda va zararlar belgilanadi. Hamda yangi g'oyalar yaratish, ijobiy yengil yechimlar topa olish, hissiy bilishni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu usullardan foydalanish talabalarda o'quv faoliyatidagi faollikni, ishga ijodiy yondashishni, muammoli vaziyatlardan irrashional tarzda chiqa olishni va eng muhimi bilimlarni mustahkamlanishiga olib keladi.

5. Ашурова Г.О. Совершенствование современного дошкольного образования // Актуальные научные исследования в современном мире. 2018. №1 1-7 (43). С. 27- 30

6. Ashurova G.O. Sovershenstvovanie sovremennogo doshkol'nogo obrazovaniya // Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire. 2018. №1 1-7 (43). С. 27 – 30

7. O.U.Avlayev, S.N.Jo'rayeva, S.R.Mirzayeva, “Ta'lim metodlari”. Toshkent-2017.”Navro'z” nashriyoti.



O'SMIRLIK YOSHIGACHA BO'LGAN BOLANING PSIXIK XUSUSIYATLARI RIVOJLANISH JARAYONI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Ashurova Gulru Oxunovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

E-mail: ashurovagulru1@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 18

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.956>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

Bola psixologiyasi, bolalar rivojlanishi, psixik xususiyatlar, kognitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, aqliy rivojlanish, psixologik omillar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bolalarning psixik xususiyatlarining rivojlanishi jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot bolalar psixik rivojlanishining asosiy bosqichlarini va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. Nazariy va empirik usullar yordamida 3-18 yoshdagi bolalar ustida o'tkazilgan kuzatishlar, intervyular va psixologik testlar asosida olingan natijalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bolalarning psixik rivojlanishida biologik omillar, oila muhiti, ta'lim tizimi va ijtimoiy munosabatlarning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Maqolada har bir rivojlanish bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning muvaffaqiyatli kechishi uchun turli-tuman omillarni hisobga olish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu maqola bolalar psixik rivojlanishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va bu jarayonni qo'llab-quvvatlashda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Kirish.: Bola psixik xususiyatlarining rivojlanish jarayonini o'rganish ta'lim va tarbiya jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi bolalik davrida sodir bo'ladi. Shu sababli, bola psixologiyasi va rivojlanish jarayonlarini chuqur o'rganish nafaqat pedagoglar va psixologlar uchun, balki ota-onalar va jamiyatning barcha a'zolari uchun ham dolzarb masaladir.

Mazkur maqolada bola psixik xususiyatlarining rivojlanish bosqichlari, ularni ta'sir etuvchi omillar va bu jarayonning nazariy asoslari haqida so'z yuritiladi. Psixologik rivojlanishning har bir bosqichida bolalarning qanday xususiyatlar va qobiliyatlarni egallashi, ularning o'yin, ta'lim va kundalik hayotdagi faolligi orqali qanday rivojlanishi batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, bola psixikasini shakllantirishda oilaning, ta'lim muassasalarining va ijtimoiy muhitning roli ham ko'rib chiqiladi.

Bola psixikasining rivojlanishi masalalarini o'rganish orqali ta'lim jarayonini yanada samaraliroq tashkil etish, bolalarning qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish, shuningdek, turli xil psixologik muammolarni oldini olish mumkin. Bu borada yetakchi psixologlar va pedagoglarning ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati katta. Maqola davomida bola psixik xususiyatlarining rivojlanish jarayoniga oid eng yangi tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili: Bola psixik xususiyatlarining rivojlanish jarayoni zamonaviy psixologiya va pedagogikaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bola rivojlanishining turli bosqichlarini aniqlash, ularning xususiyatlarini tahlil qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Sh.A.Do'stmuhammedova, "Yosh va pedagogik psixologiya" (2009)¹ kitobida L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi bola psixik rivojlanishida ijtimoiy muhitning muhimligini ta'kidlaydi. U bola rivojlanishining asosiy manbai sifatida ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy vositalarni ko'rsatadi. Vigotskiyning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bola psixik rivojlanishi uning atrofidagi kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Mahalliy olimlar orasida Menchinskaya va A. V. Petrovskining izlanishlari alohida e'tiborga sazovor. A.V. Petrovskiy- "Umumiy psixologiya" (1995)² kitobida Menchinskaya bola psixikasining rivojlanish jarayonida o'yin va mehnat faoliyatining ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, Petrovskiy bola shaxsining ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganib, uning rivojlanishidagi ijtimoiy omillarning muhimligini yoritib bergan.

Bundan tashqari, M. Mahmudov va R. Mamatovlarning mahalliy tadqiqotlari ham bola psixik rivojlanishining milliy xususiyatlarini ochib beradi. Ularning izlanishlari bola tarbiyasida milliy qadriyatlar va an'analar, shuningdek, oila va maktabning o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bola psixik xususiyatlarining rivojlanish jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, unga turli nazariy yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar va tadqiqotlar ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish, bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish va ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

Metodologiya:

Bola psixik xususiyatlarining rivojlanish jarayonini o'rganish uchun qo'llaniladigan metodologiya keng qamrovli va turli metodlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada bolalar psixik rivojlanishini o'rganish uchun qo'llanilgan metodlar quyidagilardan iborat:

Kuzatish metodi:

Tabiiy kuzatish: Bolalarning tabiiy muhitida, ya'ni uy, maktab, bog'cha kabi joylarda kuzatish. Bu usul orqali bolalarning kundalik faoliyatlarini, o'yinlari va o'zaro munosabatlari o'rganiladi.

Ekspirimental kuzatish: Maxsus tashkil etilgan sharoitlarda bolalar faoliyatini kuzatish. Bu usul orqali bolalarning turli vaziyatlarda qanday xulq-atvor ko'rsatishi tahlil qilinadi.

Ekspirimental metod:

Laboratoriya tajribalari: Bolalarning psixik jarayonlarini, masalan, xotira, diqqat, tafakkur kabi qobiliyatlarini o'rganish uchun maxsus tayyorlangan sharoitlarda o'tkaziladi.

Tabiiy tajribalar: Bolalarning kundalik hayotidagi faoliyatlarini tabiiy sharoitlarda o'rganish. Bu usul orqali bolaning real hayotdagi psixik rivojlanishi haqida ma'lumot olish mumkin.

Test metodlari:

Psixometrik testlar: Bolalarning aqliy rivojlanishini, qobiliyatlarini, shaxsiy xususiyatlarini o'lchash uchun qo'llaniladi. Bu testlar orqali bolalarning rivojlanish darajasi, qobiliyatlari va individual xususiyatlari aniqlanadi.

Proektiv testlar: Bolalarning ichki dunyosini, emotsional holatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Rorschach testi, Tematik apperseptsiya testi (TAT) kabi usullar bolalarning psixik holatini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Intervyu va suhbat metodi:

Strukturaviy intervyu: Oldindan tayyorlangan savollar asosida o'tkaziladigan suhbatlar. Bu usul orqali bolalarning fikrlari, qiziqishlari va his-tuyg'ulari haqida batafsil ma'lumot olish mumkin.

Erkin suhbat: Bolalar bilan erkin suhbatlashish orqali ularning psixik holatini, qiziqishlarini va muammolarini aniqlash.

Anketalar va so'rovnomalari: Bolalarning o'zlari, ularning ota-onalari va o'qituvchilari bilan o'tkaziladigan so'rovlar orqali ma'lumot yig'ish. Bu usul orqali bolalarning rivojlanish jarayoni, oilaviy va maktab muhitidagi omillar haqida ma'lumot olish mumkin.

Longitudinal tadqiqotlar: Bolalarning rivojlanish jarayonini uzoq vaqt davomida kuzatish. Bu usul orqali bolaning rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar, muayyan bosqichlarda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari haqida chuqurroq ma'lumot olish mumkin.

¹ Sh.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.K.Karimova, "Yosh va pedagogik psixologiya". T-2009.

² A.V. Petrovskiy- "Umumiy psixologiya"(1995)

Analitik va statistik usullar: Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va statistik qayta ishlash orqali bolalarning psixik rivojlanishidagi o'zaro bog'liqliklar, tendensiyalar va qonuniyatlarini aniqlash.

Ushbu metodlar orqali bolalar psixik rivojlanishining turli jihatlarini, ularning individual xususiyatlari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Har bir metod o'ziga xos afzalliklari va cheklovlariga ega bo'lib, ularni birgalikda qo'llash orqali bola psixikasining rivojlanish jarayonini kompleks o'rganish imkonini beradi.

Natijalar:

Tadqiqot natijalari bolalarning psixik rivojlanishi bosqichma-bosqich sodir bo'lishini ko'rsatdi. Har bir bosqichda muayyan qobiliyatlar va xususiyatlar rivojlanadi:

1. Tug'ilishdan 2 yoshgacha: Bu davrda bolaning sezgi va harakat qobiliyatlarini shakllanadi. Intuitiv ko'nikmalar va asosiy motorik funksiyalar rivojlanadi. Ota-onalar e'tibori va parvarishi bu bosqichda muhim ahamiyatga ega. Bolaning emosional rivojlanishi asosan ona bilan yaqin aloqada bo'lish orqali amalga oshadi.

2. 2 yoshdan 7 yoshgacha: Bu davrda bolaning nutqi, tasavvuri va ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari va o'yin faoliyatlari bolaning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar o'yin orqali o'rganadi va turli rollarni o'zlashtiradi. Bu bosqichda bola tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar orqali ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. 7 yoshdan 12 yoshgacha: Bu bosqichda bolaning mantiqiy fikrlashi va akademik ko'nikmalari rivojlanadi. Maktabda o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar katta ahamiyatga ega. Bolalar bu davrda turli fanlar bo'yicha bilimlarni egallaydi va bu jarayon ularning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu bosqichda bolalarning diqqat, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi.

4. O'smirlik yoshi (12 yoshdan 18 yoshgacha): Bu davrda bolaning o'zligini anglash, shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi. O'smirlik davridagi psixik o'zgarishlar bolaning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu davrda yoshlarning o'zaro munosabatlari, maktabdagi muvaffaqiyatlari va oilaviy muhit katta ahamiyatga ega.

Muhokama:

Bola psixik rivojlanishining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega va uning samarali o'tishi uchun turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar oila muhiti, ta'lim tizimi va ijtimoiy munosabatlardir.

Oila muhiti bolaning boshlang'ich rivojlanish bosqichlarida eng muhim omil hisoblanadi. Ota-onalarning muhabbati, e'tibori va qo'llab-quvvatlashi bolaning o'zini ishonchli va xavfsiz his qilishini

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova -"Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya" T-2018
2. Sh.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.K.Karimova, "Yosh va pedagogik psixologiya". T-2009.
3. A.K.Shamshetova, R.N.Meliboyeva, X.E.Usmanova, I.O. Xaydarov -"Umumiy psixologiya". T-2018
4. Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Atoboyeva, Z.Qurbonova- "Psixodiagnostikava eksperimental psixologiya" T-2013
5. A.V. Petrovskiy- "Umumiy psixologiya"(1995)

ta'minlaydi. Bu esa uning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oila muhiti bolaning emosional barqarorligiga va uning kelajakdagi munosabatlariga asos bo'lishi mumkin.

Ta'lim tizimi bolaning kognitiv rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabdagi o'qitish usullari, darslar mazmuni va pedagoglarning malakasi bolaning ilmiy salohiyatini rivojlantiradi. Maktab o'quvchilarga turli fanlar bo'yicha chuqur bilimlarni egallash imkoniyatini beradi, bu esa ularning umumiy intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari bolalarning ijtimoiy muhitda o'z o'rini topishida ham katta rol o'ynaydi.

Ijtimoiy munosabatlar bolaning har bir rivojlanish bosqichida muhim ahamiyatga ega. Bolalar o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va turli ijtimoiy rollarni o'rganadi. Bu jarayonda bolaning o'ziga ishonchini oshirish va turli muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Masalan, do'stlik munosabatlari va jamoaviy faoliyatlar bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Genetik omillar ham bolaning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayrim bolalarda muayyan kognitiv yoki emosional qobiliyatlarining rivojlanishi genetik omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holat bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni talab qiladi. Masalan, genetik omillar bolaning o'ziga xos qobiliyatlari va intellektual salohiyatini belgilashi mumkin.

Tadqiqot natijalari bolalarning psixik rivojlanishi turli bosqichlarda turli-tuman omillar ta'sirida kechishini ko'rsatdi. Har bir bosqichda bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va uning ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish muhimdir. Bolalar rivojlanishidagi har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish va bu jarayonni optimallashtirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar zarurdir.

Xulosa:

Bola psixik xususiyatlarining rivojlanishi kompleks va ko'p omilli jarayon bo'lib, uning samarali kechishi uchun oila, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Tadqiqot natijalari bola rivojlanishining turli bosqichlaridagi o'ziga xosliklarni va ularga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tushunishga yordam beradi. Bu esa bolalarning psixik salomatligini qo'llab-quvvatlashda samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Bolalar psixik rivojlanishi ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyati uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli bolalarni yoshligidanok qo'llab-quvvatlash va ularning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim va tarbiya berish jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalarning psixik xususiyatlarini rivojlantirish va bu jarayonni optimallashtirish orqali kelajak avlodning salomatligi va muvaffaqiyati ta'minlanadi.

6. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(1), 3-9.

7. Ашурова Г.О. Совершенствование современного дошкольного образования // Актуальные научные исследования в современном мире. 2018. №1 1-7 (43). С. 27- 30

8. Ashurova G.O. Sovershenstvovanie sovremennogo doshkol'nogo obrazovaniya // Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire. 2018. №1 1-7 (43). S. 27 - 30



YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK NAZARIYASI

Azimova Toyibaxon Elmurodjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

e-mail: azimovatoiyibaxon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 19

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.957>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

“Buyuk didaktika”, asosiy tamoyillar, sinfdars tizimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi Y.A. Komenskiyning pedagogik nazariyasiga bag'ishlangan. Maqolada Y.A. Komenskiyning pedagogik nazariyalari chuqur o'rganilgan. Shuningdek, Komenskiy pedagogikasi bo'yicha darslarni tashkil etish hamda Komenskiy pedagogikasining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Uning pedagogik nazariyasi o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan ajralib turadi va bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Komenskiy ta'limni insoniy rivojlanish va jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb hisoblagan. U ta'limning asosiy maqsadi sifatida insonning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishini ko'rsatadi.

Uning eng mashhur asarlaridan biri “Didactica Magna” (Ulug' Didaktika) bo'lib, unda Komenskiy ta'limning prinsip va uslublarini batafsil bayon etadi. U ta'lim jarayonini tizimli va izchil tashkil etish zarurligini urg'ulaydi. Ta'lim jarayonini to'rtta asosiy bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: boshlang'ich ta'lim (6 yoshgacha), boshlang'ich maktab (6-12 yosh), o'rta maktab (12-18 yosh) va universitet ta'limi (18 yoshdan keyin). Har bir bosqichda o'quvchilarni yoshi va qobiliyatlariga mos ravishda o'qitish kerakligini ta'kidlaydi.

Komenskiyning nazariyasida vizual ta'lim vositalarining ahamiyati katta o'rin tutadi. U bolalarga mavzularni tushuntirishda tasvirlar, rasmlar va real ob'ektlardan foydalanish tarafdori bo'lgan. Bu yondashuv bolalarning qiziqishini oshirish va o'zlashtirishni yaxshilashga yordam beradi.

Yan Amos Komenskiyning pedagogik nazariyasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, uning ta'lim sohasidagi innovatsion g'oyalari va prinsiplarining ko'pi hozirgi zamonaviy ta'lim tizimlarida qo'llaniladi. Komenskiyning ilmiy merosi pedagogika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va uning asarlari hali ham o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

Kirish: Pedagogika fanining rivojlanishi insoniyat tarixining barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Ta'lim va tarbiya jarayonlari jamiyatning ma'naviy, madaniy va ilmiy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan. Qadimgi davrlardan boshlab XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda pedagogika fanining rivojlanishi turli falsafiy va ilmiy qarashlar, ta'lim tizimlari va metodikalarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda ko'plab olimlar va pedagoglar ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga o'z hissasini qo'shganlar.

Y.A. Komenskiy (1592-1670) pedagogikasi jahon pedagogika tarixida muhim o'rin tutadi. Uning pedagogik nazariyalari va didaktik tamoyillari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari ta'lim jarayonini tizimli va ilmiy asosda tashkil etishning dastlabki namunasi sifatida e'tirof etiladi. U ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik, ketma-ketlik, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi tamoyillarni ilgari surgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi o'rin tutadigan ta'lim – tarbiya sohasidagi ishlar ko'lamini tobora ortib bormoqda. Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda yoshlarning ongi va qalbini egallash kuchayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur”¹ deya ta'kidlagan edi.

Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida tarixiy tajriba va an'analarga asoslanish, pedagogikaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish zarurati bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlil: Yan Amos Komenskiy (1592-1670) - buyuk pedagog va faylasuf bo'lib, uning pedagogik nazariyasi ta'lim tarixi va amaliyotida muhim o'rin egallaydi. Komenskiyning pedagogik nazariyasi ko'plab asarlar va tadqiqotlar orqali tahlil qilingan. Quyida ushbu nazariyaning turli jihatlarini yorituvchi muhim adabiyotlar tahlil qilinadi.

Graves o'z asarida Komenskiyning hayoti, pedagogik faoliyati va uning pedagogik falsafasini keng yoritadi. Muallif Komenskiyning pedagogik tamoyillarini, xususan, ta'lim jarayonini tabiiy rivojlanish asosida tashkil etish, o'quvchilarni sevgi va hurmat bilan tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu asar Komenskiyning zamonaviy pedagogika rivojlanishiga qo'shgan hissasini aniq tushunishga yordam beradi.²

Keatinge o'z kitobida Komenskiyning “Didactica Magna” asarining tarjimasini va izohlarini taqdim etadi. Muallif Komenskiyning ta'lim tizimidagi yangiliklarini, xususan, sinf va dars tizimini joriy etish, bolalar ta'limida ko'rinishli va amaliy usullardan foydalanish kabi tamoyillarini batafsil tahlil qiladi. Kitob Komenskiyning innovatsion pedagogik qarashlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.³

Benes Komenskiyning zamonaviy ta'limga ta'sirini o'rganadi va uning pedagogik metodlari va didaktik tamoyillarini zamonaviy ta'lim tizimiga qanchalik mos kelishini tahlil qiladi. Muallif Komenskiyning o'quv jarayonida ko'rinishli vositalardan foydalanish, ta'limni bosqichma-bosqich tashkil etish va o'qituvchilarning rolini ta'kidlaydi. Ushbu asar Komenskiyning pedagogik nazariyasining bugungi kun ta'lim amaliyotiga ta'sirini ko'rsatadi.⁴

Filip Komenskiyning didaktikasi va zamonaviy pedagogikaning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Muallif Komenskiyning “Umumiy didaktika” tushunchasini tahlil qiladi va uning zamonaviy pedagogik nazariyalari bilan qanday mos kelishini ko'rsatadi. Bu asar Komenskiyning pedagogik g'oyalari hozirgi ta'lim amaliyotida qanday qo'llanilishini chuqurroq anglashga yordam beradi.⁵

Yan Amos Komenskiyning pedagogik nazariyasi ta'lim tarixi va amaliyotida muhim o'rin tutadi. Uning pedagogik falsafasi, didaktik tamoyillari va metodlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va zamonaviy ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar Komenskiyning pedagogik qarashlarini batafsil tahlil qilib, uning ta'lim sohasidagi yutuqlarini yoritadi va zamonaviy pedagogika bilan bog'laydi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada keltirilgan natijalar va tavsiflar pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va ta'lim muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega. Ushbu ish pedagogik nazariyalarni o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish va talabalarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” 2017. – 17 б.

² Graves, F. P. (1912). Great Educators of Three Centuries

³ Keatinge, M. W. (1910). The Great Didactic of John Amos Comenius

⁴ Beneš, Z. (1970). The Influence of Comenius on Modern Education

⁵ Filip, J. (1993). Comenius' Educational Concepts in the Context of Modern Didactics

Unda qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi va Y.A. Komenskiyning pedagogik nazariyalari tizimli ravishda o'rganilgan. Shuningdek, Komenskiyning didaktik tamoyillari zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash uchun yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Pedagogika tarixiga oid manbalar, Komenskiyning asarlari va zamonaviy pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi. Tajribiy ishlar orqali Komenskiyning pedagogik nazariyalarini zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari o'rganildi.

Tahlil va natijalar: Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika» asarida «o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak», deydi. Bolaning aqliy va jisim oniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarash (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyish o'z davrida ilg'or fikr sanalgan. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Jumladan, matematika kabi aniq fanlarni o'qitishning qiyosiy metod va shakllarini ishlab chiqish hamda qo'llash, matematika ta'limini takomillashtirishga ham Komenskiyning nazariyalari katta yordam berdi. Ushbu metodologiyalar turli matematik tushunchalar, yondashuvlar va muammolarni hal qilish strategiyalarini solishtirish, ularning nisbiy kuchli va zaif tomonlarini tushunish, shuningdek, matematikani o'qitish va o'rganish bo'yicha eng yaxshi tajribalarni aniqlashni o'z ichiga oladi.⁶

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, etuklik. Shuningdek ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Umumta'lim g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi. Shu tufayli ulug' pedagog bu masalani ilgari surdi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlash ekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiyalardir.

Bular bola tug'ilganidan 24 yoshiga kunguncha amalga oshiriladi, bu vaqt mobaynida bola har biri 6 yildan bolgan to'rt maktabni o'qib tugatishi kerak, deb hisoblagan ulug' pedagog.

Komenskiyning bolani yoshini davrlarga bo'lishi. Komenskiy tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. Tugaganidan 6 yoshgacha - ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofda dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat berish lozim. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha - xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. 12-18 yoshgacha - gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha - Universitet. Akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi lozim.

Shunday qilib, maktab Komenskiy qarashida o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, o'quvchilarni so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatmoqchi shart.

- Mehnat kishini ulug'laydi, - deydi Komenskiy. - Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish dardor.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida didaktika katta o'rinni egallaydi.

Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bihm va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili - Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qilib bergan.

Ko'rgazmalilikni o'qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi u. Bu tamoyilda: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, v) narsalarning modelini ko'rsatish, g) o'qituvchining o'zi o'rganilayotgan materialni chuqur bilishga va esda uzoq vaqt saqlanishga olib keladi.

2. Onglilik tamoyili. Komenskiy onglilik tamoyilini ilgari surar ekan, o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik lozim». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtatmoq kerak» deb yozadi u.

3. Komenskiy ta'limning tizimli o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlantirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretidan abstraktga, osondan qiyonga, umumiydan xususiyga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini alohida o'rganish kerak deb hisoblaydi. Izchillik tamoyili - fan asoslarini izchil bayon qilish va sistemali tarzda o'rgatish. Izchillik tamoyilida, kun, oy va yilga vazifa o'qituvchi va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi, material izchillik bilan o'rganilishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

Komenskiy materialni mustahkam, asosli o'zlashtirishga katta ahamiyat berib, «mustahkam asos» vujudga keltirish, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish lozim, deydi. O'tilgan mavzuni mashq qildirish va takrorlatish o'quvchilarning mustahkam o'zlashtirishiga olib keladi.

Darslarda turli texnologiyalardan foydalanish uni samaraliroq o'tishini ta'minlashini ta'kidlaydi. Misol uchun matematika darslarini tashkil etishda raqamli texnologiya elementlaridan foydalanish o'rganishni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Onlayn simulatsiyalar, raqamli oq taxtalar, animatsiyalar, videolar va interaktiv o'yinlarni birlashtirish ayniqsa hozirgi davrda juda katta ahamiyatga ega.⁷

Sinf - dars tizimi. Komenskiy o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf - dars tizimida o'qitishni olib borishni tavsiya etadi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Darsni rejalashtirib o'tish to'g'risida ko'rsatma berar ekan har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lishi lozimligini aytadi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddan tashqari oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtda 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisoblaydi. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi.

U maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish, ta'tillar berilishini joriy qildi. O'quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat) belgilab berdi. O'quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o'qish kuzda (sentyabrda) boshlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Komenskiy darslik qanday bo'lishi to'g'risida qimmatli fikrlar aytib, o'z zamonasi uchun namunali bo'lgan bir necha darsliklar yozdi. O'zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. U darslikda o'quv materiallari yetarli bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil va

⁶ Otto, M., & Thornton, J. (2023). MATEMATIKANI O'QITISHDA QIYOSIY USULLAR VA O'QUV TEXNOLOGIYALARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 241-244.

⁷ Otto, M., & Thornton, J. (2023). MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 103-104.

oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart, deb hisoblagan. Bu fikrlarni o'zining «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» hamda «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlarini» kabi darsliklarida bayon etadi.

«Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» darsligini o'zining didaktik tamoyillariga amal qilgan holda tuzdi. Darslik bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan boyitilgan.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlarini»ni boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta surat bilan berilgan qisqa maqolalar tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jahigi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beradi. Bu kitob ko'p tillarga tarjima qilindi, boshlang'ich ta'lim uchun 150 dan ko'proq xizmat qildi.

Buyuk didaktika (Didactica Magna) - 1657 yilda nashr etilgan ushbu asar zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotiga asos soldi. Ko'pincha zamonaviy ta'limning otasi deb ataladigan Komenskiy zamonaviy ta'lim tizimlarida rezonanslashda davom etadigan innovatsion g'oyalarni kiritdi.

O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, resurslarni adolatli taqsimlash bilan bir qatorda ta'limda mukammallikni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Pedagoglarni zamonaviy pedagogik uslublarni jihatlovchi kasbiy rivojlanish dasturlariga sarmoya kiritish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, ta'lim resurslaridan, jumladan, texnologiya va yuqori malakali o'qituvchilardan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash, o'yin maydonini tenglashtirish va yutuqlar orasidagi farqni qisqartirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili PISA ning ta'lim siyosatini ishlab chiqish va isloh qilish harakatlariga global ta'sirini ta'kidlaydi. PISA natijalari xalqaro standartlar bilan taqqoslash uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etsa-da, global taqqoslashlarni mahalliy kontekstualizatsiya bilan muvozanatlash juda muhimdir. PISA baholashlarining to'g'riligini ko'rib chiqish va o'quv dasturlarini qisqartirish va testga o'rgatish kabi kutilgan oqibatlarni yumshatish PISA tushunchalaridan samarali foydalanishda muhim masalalardan hisoblanadi.

Siyosatni ishlab chiqishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni qo'llash orqali O'zbekiston PISA ma'lumotlaridan dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va yaxshilash uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash uchun foydalanishi mumkin. PISA tomonidan aniqlangan aniq kamchiliklarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan maqsadli siyosat va aralashuvlar islohotlar sa'y-harakatlarining ta'sirini maksimal darajada oshirishi mumkin. Bundan tashqari, malaka oshirish tashabbuslari va ilg'or xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirilgan o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish ta'lim standartlarini yuksaltirishi va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston PISA testidan olingan bebaho tushunchalar bilan qurollangan ta'lim yo'lining chorrahasida turibdi. Ushbu tushunchalardan strategik foydalanish orqali O'zbekiston jahon miqyosida ta'lim sohasidagi mukammallik va raqobatbardoshlik yo'nalishini belgilashi mumkin. Nomutanosibliklarni bartaraf etish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va o'quvchilar muvaffaqiyatiga ustuvor ahamiyat berish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali O'zbekiston o'z ta'lim tizimining to'liq salohiyatini ochib berishi va kelajak avlodlarga tobora murakkab va o'zaro bog'liq bo'lib borayotgan dunyoda rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

5. OECD. (2016). *PISA 2015 results (Volume I): Excellence and equity in education*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264266490-en>
6. Sahlberg, P. (2011). *Finnish lessons: What can the world learn from educational change in Finland?* Teachers College Press.
7. Jumanova, S. I. (2024). O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI XUSUSIYLASHTIRISH VA PISA TESTIGA TAYYORLASH MASALALARI. *Kokand University Research Base*.
8. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. *OO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 159-162.
9. <https://gpseducation.oecd.org/CountryProfile?primaryCountry=UZB&treshold=10&topic=PI>



SAMARALI PEDAGOGIK MULOQOTNI TASHKIL ETISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI MUHIM OMIL

M.M. Tojiyeva

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

muhabbatxotojiyeva11@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 22

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.960>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

muloqot, metod, pedagog, pedagogik muloqot, ta'lim, pedagogik jarayon, o'qituvchi, o'quvchi, Taraqqiyot strategiyasi, tizim.

Ushbu maqolada ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim bo'lgan, dars mobaynida qo'llaniladigan pedagogik muloqot metodlari bayon etilgan. Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligi hamda respublikamizda ta'lim sifatini oshirish uchun olib borilayotgan islohotlar, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan qaror va farmonlar haqida bayon etilgan. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik muloqotning o'zining ahamiyati haqida tadqiqotchi olimlar fikrlari o'rganilgan, shuningdek muallif tomonidan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Pedagogik muloqotning strukturaviy elementlari klaster asosida tizimlashtirilgan va ularning tafsilotlari misollar orqali tushuntirilgan. Dars jarayonini tashkillashtirishda muhim bo'lgan ta'limiy metodlar klassifikatsiyalarga ajratilgan, hamda ularning ta'riflari batafsil bayon etilgan. Pedagogik muloqot metodlarining turlari, ularni to'g'ri tanlash va samarali qo'llashning ta'lim jarayoni muvaffaqiyatidagi o'zining ta'limiy ahamiyati fikrlari berilgan. Shuningdek, ushbu ishda pedagogik muloqot va metodlarning turlari, zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot so'ngida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim bo'lgan jihatlar bo'yicha xulosalar berilgan hamda ta'lim muassasalarida samarali pedagogik muloqotni tashkil etish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyatning rivojlanishida va kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi o'rin tutadigan ta'lim – tarbiya sohasidagi ishlar ko'lamini tobora ortib bormoqda. Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda yoshlarning ongi va qalbini egallash kuchayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"¹ deya ta'kidlagan edi.

Respublikamizda ta'lim sohasini rivojlantirish, kelgusida raqobatbardosh, yetuk bilim va salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni yetishtirish bugungi o'zbek siyosatining ustuvor masalalaridan bir hisoblanadi. O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham ta'lim sifatini oshirish bo'yicha maqsadlar belgilangan. Jumladan 44-maqsad "Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilim va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish", 46-maqsad "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish", 47-maqsad "2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash"² deb nomlanib, ta'lim muassasalari va ta'lim sifatini oshirishga, respublikamizni rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish maqsadida qator vazilar belgilab qo'yilgan.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik muloqot va metodlarning o'zining ahamiyatidir. Bu tushunchalar o'quv jarayonining markazida turib, ta'lim sifatini aniqlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Pedagogik muloqot o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Muloqotlar o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi, bu esa ta'lim jarayonini individualizatsiyalash imkonini beradi.

Pedagogik metodlar esa o'qitish jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar va texnikalarni o'z ichiga oladi. Ular o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Metodlarning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili: Muloqot - yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi³.

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir⁴.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'zchimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;
- o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;
- dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi⁵.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot, avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o'qituvchiga yo'nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi⁶:

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: "Ўзбекистон" 2017. – 176.

² 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022. PF-60.

³ Ravshanovna, X. S. (2023). Pedagogik muloqot o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.

⁴ Axmedov, A. Y., & Sherqoziyeva, Z. F. (2023). Pedagogik muloqotning kommunikativ asoslari. *O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal*, 2(19), 425-431

⁵ Muradovna, E. X. (2022). Ta'limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 31-35.

⁶ Beginkulov H.Sh. The Concept of Media Competence of the Educator and Its Essence // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 18 Nov 2021.

1. **Prognostik bosqich (modellashtrish):** O'qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtrish.
2. **Kommunikativ aloqa:** O'quvchi bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.
3. **Pedagogik jarayon:** O'qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.
4. **Natijalar tahlili:** Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtrish.

Dars sifatini oshirishda samarali pedagogik muloqotni o'rnatish muhim bo'lib, bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada qator olimlar o'z ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasida samarali pedagogik muloqotni tashkil etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish muammolari, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda kompetentligi muammosi N.A.Muslimov⁷, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjaboyev⁸ lar tomonidan tadqiq qilingan. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari X. A.Fayzullayevich, N. Ergasheva, R.Yo'Ichiyev⁹lar tomonidan o'rganilib, ilmiy nashrlar chop ettirilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, hamda o'z tadqiqotlarimiz natijasida pedagogik muloqotga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Pedagogik muloqot — bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan kommunikativ jarayon bo'lib, o'qitish va o'rganish maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladi. Bu muloqot o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb qilish, ularning qiziqishini uyg'otish, savollarni aniqlashtirish va tushuntirish, shuningdek, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun muhimdir. Pedagogik muloqotning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ **Interfaol xususiyat:** O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol, ikki tomonlama muloqot.
- ✓ **Didaktik yo'naltirilganlik:** Muloqot maqsadi o'qitish va o'quvchilarni tarbiyalashdir.
- ✓ **Emotsional va motivatsion ta'sir:** Muloqot o'quvchilarning emotsional holatiga va motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

✓ **Individuallik:** Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish. Bu muloqot o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashda va o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.


Metodologiya: Ushbu tadqiqot ta'lim sifatini oshirishda samarali pedagogik muloqotni tashkil etishning ahamiyatini tahlil qilish va ushbu jarayonda foydalaniladigan usul va yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi metodologik qadamlar orqali amalga oshiriladi:

- Ilmiy maqolalar, kitoblar, dissertatsiyalar va pedagogik muloqot bo'yicha oldingi tadqiqotlar o'rganiladi. Bu bosqichda o'qitish metodlari, pedagogik muloqotning xususiyatlari va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi.
- Pedagogik muloqotning strukturaviy elementlari klaster asosida tizimlashtiriladi va ularning tafsilotlari keltiriladi.
- Dars jarayonini tashkillashtirishda muhim bo'lgan ta'limiy metodlar klassifikatsiyalarga ajratiladi. Bu usul yordamida samarali pedagogik muloqot tashkil etishda qo'llaniladigan ta'limiy metodlar aniqlanadi.
- Tadqiqot so'ngida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim bo'lgan jihatlar bo'yicha xulosalar beriladi hamda ta'lim muassasalarida samarali pedagogik muloqotni tashkil etish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodologiyani qo'llash pedagogik muloqotni samarali tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha umumiy xulosalar chiqarishga, shuningdek, o'qituvchilar va ta'lim tashkilotlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar: Pedagogik muloqot ta'lim jarayonining markaziy qismi bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali aloqa o'rnatishni ta'minlaydi. Pedagogik muloqotning muvaffaqiyati uning strukturaviy elementlarini chuqur tushunish va to'g'ri qo'llashga bog'liq. Biz qator ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganib, pedagogik muloqotning asosiy strukturaviy elementlarini quyidagicha klassifikatsiya qildik:

1-jadval. Pedagogik muloqotning asosiy strukturaviy elementlari¹⁰



Ushbu tushunchalarning kengaytirilgan tasnifini keltirib o'taylik:

O'qituvchi - pedagogik muloqotning asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. U darsning maqsad va vazifalarini belgilaydi, axborotni yetkazadi va o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqaradi.

O'qituvchining pedagogik mahorati, bilim darajasi va kommunikativ qobiliyatlari muloqotning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir.

O'quvchilar - pedagogik muloqotning ikkinchi asosiy subyekti bo'lib, ular axborotni qabul qilish, qayta ishlash va o'zlashtirishda faol

⁷ Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboyeva M.H., To'rayev A.B. Veb texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – Toshkent, 2015. – B. 5–7.

⁸ Ходжабаев А.Р. Научно-педагогические основы учебнометодического комплекса подготовки учителя труда: Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 1992. – С. 406

⁹ Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILLI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139

¹⁰ Muallif ishlanmasi

ishtirok etadilar. O'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va bilim olishga bo'lgan qiziqishi muloqotning samaradorligini oshiradi.

Pedagogik muloqot mazmuni ta'lim berilayotgan axborot va bilimlardan iborat bo'lib, u o'quv dasturi va dars rejasiga muvofiq shakllanadi.

Axborot - bu o'qituvchi tomonidan beriladigan faktlar, ma'lumotlar, ko'nikmalar va bilimlardir. Mazmuni ta'lim dasturiga mos kelishi va o'quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda tanlanishi kerak.

Ta'limiy material - bu darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali vositalar va boshqa ta'lim materiallarini o'z ichiga oladi. Ushbu materiallar o'quvchilarning mavzuni tushunishiga va bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik muloqotning muvaffaqiyati uning vositalariga ham bog'liq. Bu vositalar verbal va noverbal muloqot vositalariga bo'linadi.

Til va nutq - verbal aloqa vositalari, ya'ni so'zlar, nutqiy ifodalari va til qoidalari. O'qituvchi va o'quvchilar til va nutq orqali axborotni yetkazadilar va qabul qiladilar. Nutqning aniqligi, ravonligi va tushunarligi muloqotning samaradorligini oshiradi.

Noverbal vositalar - tana tili, mimikalar, gestikulatsiyalar va ovoz ohangi. Bu vositalar verbal muloqotni to'ldiradi va qo'shimcha ma'lumotlarni yetkazadi. Masalan, o'qituvchining tana harakati yoki yuz ifodasi orqali o'quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunishi mumkin.

Pedagogik muloqot turli kanallar orqali amalga oshiriladi. Bu kanallar orqali axborotning yetkazilishi o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini samarali qiladi.

Vizual kanal - bu ko'rgazmali vositalar, yozma matnlar, diagrammalar va slaydlarni o'z ichiga oladi. Ko'rgazmali materiallar o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Audial kanal - ovoz, nutq va boshqa tovushli axborotlar orqali amalga oshiriladi. Bu kanal o'qituvchining nutqiy ifodalari, leksiyalar va musiqiy vositalarni o'z ichiga oladi. Ovozning ohangi va balandligi o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va axborotni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi.

Kinestetik kanal - harakat va tegish orqali axborot yetkaziladi. Bu kanal orqali o'quvchilar o'rganishni tajribiy usullar bilan amalga oshiradilar, masalan, laboratoriya ishlarida yoki amaliy mashg'ulotlarda.

Muloqotning muvaffaqiyati uning muhitiga ham bog'liq. Muhit ta'lim jarayonining qanchalik samarali o'tishini belgilaydi.

Jismoniy muhit - bu sinf xonasi, o'quv laboratoriyalari va boshqa ta'lim maskanlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim muhiti qulay va samarali bo'lishi kerak, ya'ni sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ventilyatsiya qilingan va zamonaviy ta'lim vositalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim;

Ijtimoiy muhit - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va atmosfera. Pozitiv ijtimoiy muhit muloqotni samarali qiladi. Ijtimoiy muhitda hurmat, hamkorlik va o'zaro tushunish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik muloqot turli shakl va usullarda amalga oshiriladi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Monologik muloqot - o'qituvchining biryozlama axborot berishi. Bu leksiya va ma'ruzalar shaklida bo'lishi mumkin. Monologik muloqotda o'qituvchi axborotni to'liq nazorat qiladi va o'quvchilarga yetkazadi.

Dialogik muloqot - savol-javob shaklida olib boriladigan muloqot. Bu usul o'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi va ularni o'z fikrlarini ifodalashga undaydi.

Poliologik muloqot - guruh muhokamalari, munozaralar va seminarlar. Bu usul o'quvchilar orasida hamkorlik va fikr almashishni rag'batlantiradi, shuningdek, kritiklikni rivojlantiradi.

Interaktiv usullar - interaktiv doskalar, multimedia vositalari va o'quv o'yinlari orqali amalga oshiriladi. Bu usullar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini jonli qiladi.

Muloqotning psixologik tomonlari ham muhimdir. Psixologik jihatlari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Empatiya - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro tushunish va his qilish qobiliyati. Empatiya muvaffaqiyatli muloqotning kalitidir, chunki u o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Motivatsiya - o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish va rag'batlantirish. Motivatsiya o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faolroq qiladi. Motivatsiya vositalari sifatida o'qituvchi rag'batlantirish, tanqidiy baholash va maqsad qo'yishni qo'llashi mumkin.

Ishirok - o'quvchilarning faol muloqot va o'quv jarayoniga qo'shilishi. Ishirok etish imkoniyatlari o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi va ularning fikrlarini erkin ifodalashlariga yordam beradi.


Tushunish - o'quvchilar tomonidan axborotni to'g'ri qabul qilish va tushunish darajasi.

Aloqa samadorligi - muloqot natijalarining o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga ta'siri.

Qayta aloqa - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish uchun qayta aloqa jarayoni.

Pedagogik muloqotning bu strukturaviy elementlari ta'lim jarayonida samarali va mazmunli muloqotni ta'minlash uchun bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogik muloqot metodlari ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z darslarida turli metodlarni qo'llab, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishlari va ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilishlari mumkin. Dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik muloqot metodlarini aktiv va interaktiv (2-jadval) metodlarga ajratib quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin.



2-jadval. Pedagogik muloqot metodlari¹¹

Bu metodlar va yondashuvlar pedagogik muloqotni yanada boyitadi va ta'lim jarayonini samarali qiladi. Har bir metodning o'ziga xosligi va afzalliklari bor, ular o'qitish maqsadlari, o'quvchilar ehtiyojlari va dars mazmuniga qarab tanlanadi.

Pedagogik muloqot metodlari turli xil bo'lib, ularni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik metodlarning keng qo'llanilishi natijasida ta'lim sifati va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari hamda bilim darajasi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa va takliflar: Pedagogik muloqot metodlari ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z darslarida turli metodlarni qo'llab, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishlari va ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilishlari mumkin. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari va cheklavlari borligi sababli, har bir dars mavzusi va o'quvchilar ehtiyojlariga mos keladigan metodlarni tanlash zarur.

Ushbu tadqiqot natijalaridan qator xulosa qilish mumkinki pedagogik muloqot va pedagogik metodlarning ta'lim jarayonidagi roli va ahamiyati katta bo'lib, ta'lim jarayonida samarali pedagogik muloqot va metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi, ularning qiziqishi va faoliyatini oshiradi. Pedagogik muloqot ta'lim jarayonining markazida turib, o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos keladigan ta'lim usullarini tanlashda asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik metodlar ta'lim

jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usullar va texnikalar majmuini tashkil etib, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarning qo'llanishi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri ijobiy. Ta'lim jarayonida turli metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu ishda pedagogik muloqot va metodlarning turlari, zamonaviy yondashuvlar va amaliyotda qo'llanish tajribasi keng yoritildi. Hozirgi zamon ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning paydo bo'lishi bilan pedagogik muloqot va metodlarga bo'lgan talab va ularning o'zgarishi ortib bormoqda.

Ushbu tadqiqot ishini olib borish natijasida ta'lim muassasalari dars jarayonlarida pedagogik muloqotni tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqdik. Bular: Pedagogik muloqot va metodlarni tanlashda o'quvchilarning individual xususiyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yondashuvlardan faol foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur. O'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha doimiy seminar va treninglar tashkil etib bo'rish hamda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish uchun zarur sharoitlarni yaratish lozim. Pedagogik muloqot va metodlarning yangi turlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha izlanishlarni davom ettirish kerak. Ta'lim jarayonida metodlarning samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlar va usullar ishlab chiqish lozim.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot ishi pedagogik muloqot va metodlar bo'yicha ilmiy-amaliy asos yaratib, ta'lim jarayonini takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹¹ Muallif ishlanmasi

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
2. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022. PF-60.
3. Ravshanovna, X. S. (2023). Pedagogik muloqot o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
4. Axmedov, A. Y., & Sherqo‘ziyeva, Z. F. (2023). Pedagogik muloqotning kommunikativ asoslari. *O‘zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal*, 2(19), 425-431
5. Muradovna, E. X. (2022). Ta‘limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 31-35.
6. Begimkulov H.Sh. The Concept of Media Competence of the Educator and Its Essence // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 18 Nov 2021.
7. Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboyeva M.H., To‘rayev A.B. Veb texnologiya asosida elektron axborot ta‘lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – Toshkent, 2015. – B. 5–7.
8. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Национальная программа по подготовке кадров. – Ташкент: Университет, 2000. – С. 103
9. Ходжабаев А.П. Научно-педагогические основы учебнометодического комплекса подготовки учителя труда: Дисс. док. пед. наук. – Ташкент, 1992. – С. 406
10. ERGASHEVA, N., & YO‘LCHIYEV, S. (2023). TA‘LIM TARBIYANING ZAMONAVIY SHAKLLARI. *Journal of Research and Innovation*, 1(5), 34-39
11. Fayzullayevich, X. A. (2024). Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda interaktiv ma‘ruza usulidan foydalanishning samaradorligi. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 583-588.
12. Elmurodov, M. N., & Tojiyeva, M. M. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY HISOBNING AHAMIYATI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 44-47.
13. qizi Azimova T. E. ECONOMIC DIRECTIONS IN TEACHING MATHEMATICS //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 54-56.
14. Raxmonova, V. (2023). THE ROLE AND PLACE OF MATHEMATICAL MODELS IN TEACHING STUDENTS TO SOLVE OPTIMIZATION PROBLEMS. *Modern Science and Research*, 2(4), 592-597.
15. Kamoldinovna, S. Y. (2023). TURISTIK MAHSULOTLAR VA XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYALASHNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8, 66-69



“BUMERANG” METODINING O'QUV FAOLIYATDA QO'LLANILISHI

Qaxxorova Muslimaxon Shokirjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Orcid: <https://orcid.org/0009-00017868-7602>

E-mail: muslimaxonqaxxorova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 23

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.961>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/
keywords

Bumerang metodi, interfaol metodlar, o'quv faoliyati, ta'lim jarayoni, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash, bilim olish, o'qitish usullari, talabalar motivatsiyasi, ta'lim samaradorligi, interaktiv o'qitish, o'qituvchi va talaba aloqasi, o'qitish texnologiyalari, innovatsion pedagogika, muloqot ko'nikmalari.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ta'lim jarayonida interfaol metodlardan biri bo'lgan “Bumerang” metodining qo'llanilishi va uning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada “Bumerang” metodining nazariy asoslari, uning maqsadlari va o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beriladi. “Bumerang” metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, u talabalarni mavzuga qiziqish bilan yondashishga va faol ishtirok etishga undaydi. Metodning asosiy xususiyati shundan iboratki, talabalar savollar orqali o'zaro muloqot qilishadi va shu tariqa mavzuni chuqurroq o'zlashtirishadi. Bu usul talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularning fikrini ifodalash va himoya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kirish: Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va o'quv motivatsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha passiv ta'lim berishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda talabalar ko'proq ma'lumotni eshitish va yodlash bilan shug'ullanadilar. Biroq, zamonaviy ta'lim metodlari talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlashga qaratilgan. Shunday innovatsion usullardan biri bu – “Bumerang” metodidir.

“Bumerang” metodi talabalarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ularga mavzuni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu metodda talabalar o'zaro savol-javoblar orqali muloqot qilib, muammolarni muhokama qiladilar va yechimlar izlaydilar. Natijada, talabalarning fikrlash qobiliyati rivojlanadi, ularning muloqot ko'nikmalari shakllanadi va o'z bilimlarini boshqalarga tushuntirish qobiliyatlarini oshiradi.

Ushbu maqolada “Bumerang” metodining nazariy asoslari, uning o'quv faoliyatida qo'llanilishi va samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, metodning amaliy qo'llanilishi bo'yicha misollar keltiriladi va uning ta'lim jarayonidagi afzalliklari tahlil qilinadi. Maqola pedagoglar va ta'lim sohasi mutaxassislari uchun qimmatli manba bo'lib, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar tahlili: “Bumerang metodi” zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan interfaol metodlardan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'plab ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida isbotlangan. Ushbu metodning asosiy maqsadi talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undash va ularning bilim olish samaradorligini oshirishdir. Quyida “Bumerang” metodining nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va uning ta'lim jarayonidagi afzalliklari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Iskandarova va Alimovning “Interfaol ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi” (2019)¹ kitobiga ko'ra, “Bumerang” metodi interfaol ta'lim texnologiyalarining bir turi bo'lib, u talabalarni mustaqil fikrlashga, muloqot qilishga va o'zaro hamkorlikda ishlashga yo'naltiradi. Ushbu metodda talabalar savol-javoblar orqali bilimlarini mustahkamlashadi va o'zaro fikr almashadilar, bu esa ta'lim jarayonini yanada jonli va samarali qiladi.

Xudoyorov va Karimovlarning “Bumerang metodining amaliy qo'llanilishi” (2020)² nomli kitobida “Bumerang” metodining turli fanlar bo'yicha qo'llanilishini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu metod talabalar orasida katta qiziqish uyg'otadi va ularni mavzuga faol jalb etadi. Masalan, adabiyot darslarida

bu metod orqali talabalar o'qilgan asar yuzasidan savollar berib, o'z fikrlarini bayon qilishadi va bu orqali asarning mazmunini yanada chuqurroq o'zlashtirishadi.

Rahimovning “Bumerang metodining talabalar motivatsiyasi va faolligiga ta'siri” (2018)³ nomli kitobida tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda “Bumerang” metodining talabalar motivatsiyasi va faolligiga ijobiy ta'siri ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu metod talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar savol-javoblar va munozaralar orqali bir-birining fikrlarini hurmat qilishni va hamkorlikda ishlashni o'rganadilar.

Mamatov va Safarovlarning “Bumerang metodining ta'lim samaradorligiga ta'siri” (2021)⁴ nomli kitobida “Bumerang” metodining ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu metod orqali o'quvchilar o'quv materialini yanada yaxshiroq o'zlashtiradilar, ularning bilimlari mustahkamlanadi va amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlanadi. Shuningdek, metod talabalarning muloqot ko'nikmalarini hamda o'z fikrlarini ravon va aniq ifodalash qobiliyatini oshiradi.

Metodologiya: “Bumerang” texnologiyasi turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishda qulay bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan talaba yoki o'qituvchi ro'lida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi, talabalarni mashg'ulot jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan.

1. Darsda o'rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta qism mavzular bo'lsa, o'quv xonasidagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi qism mavzu o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talabalarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi boshqa qism mavzular ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagi guruhlarning talabalariga taqdim etiladi. Har bir guruhdagi talabalar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta qism mavzuni o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqadilar.

2. Shundan keyin 4 guruh talabalari aralashtirilib, yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan talabalarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, talabalarda o'quv materialini mustaqil

¹ Iskandarova, Z., & Alimova, R. (2019). Interfaol ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi.

² Xudoyorov, A., & Karimov, B. (2020). “Bumerang” metodining amaliy qo'llanilishi.

³ Rahimov, N. (2018). “Bumerang” metodining talabalar motivatsiyasi va faolligiga ta'siri.

⁴ Mamatov, Q., & Safarova, D. (2021). “Bumerang” metodining ta'lim samaradorligiga ta'siri.

o'rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, talabalar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir talaba sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talabaga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shilib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

5. Endi har bir talabani baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test topshiriqlari tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talabarlari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

6. Dars o'qituvchi tomonidan talabalar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talabalarga to'plangan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talabalarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtda yetishmovchilik kutilsa, to'rtinchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin.

Natijalar: "Bumerang" metodini o'quv faoliyatida qo'llash orqali bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Ushbu metod talabalarining darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, ularning bilim olish jarayonini interaktiv va hamkorlikda o'tkazish imkonini berdi. Quyida "Bumerang" metodining qo'llanishi natijasida erishilgan asosiy natijalar keltiriladi:

1. Talabalarining faol ishtiroki va motivatsiyasi oshdi. "Bumerang" metodida talabalar doimiy ravishda faol ishtirok etib, o'z bilimlarini boshqalarga yetkazish va boshqalardan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu jarayon ularni dars jarayonida diqqatlarini jamlashga va mustaqil ravishda bilim olishga undadi. Natijada, talabalar darslarga ko'proq qiziqish bilan qatnasha boshladilar va ularda o'qishga nisbatan motivatsiya sezilarli darajada oshdi.

2. Bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishi. Metod orqali har bir talaba o'zi o'rganayotgan mavzuni tushuntirib berish va boshqalarga o'rgatish orqali o'z bilimlarini mustahkamladi. Har bir talaba avval o'ziga berilgan mavzuni chuqur o'rganib chiqib, keyin uni boshqalarga tushuntirish orqali mavzuni yanada yaxshiroq o'zlashtirdi. Bu jarayon talabalarining o'zaro fikr almashishi va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini yaratdi.

3. Hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlandi. "Bumerang" metodida talabalar kichik guruhlarda va yangi guruhlarda birgalikda ishlashga majbur bo'lishdi. Bu esa ularda hamkorlikda ishlash, jamoaviy muammolarni hal qilish va o'zaro fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Talabalar bir-birlariga yordam berib, bir-birlarining tushunchalarini to'g'rilab, bilimlarni birgalikda o'zlashtirdilar.

4. O'qituvchining rolini o'zlashtirish. Metod davomida har bir talaba vaqtincha o'qituvchi rolini o'z zimmasiga olib, o'z o'rganan materialini boshqalarga tushuntirdi. Bu jarayon talabalarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirdi va ularga o'qituvchining qanday ishlashi haqida chuqurroq tushuncha berdi. Talabalar o'zlari o'rganan mavzuni tushuntirib berish orqali o'z bilimlarini yanada mustahkamladilar.

5. O'z-o'zini baholash va refleksiya. "Bumerang" metodida talabalar bir-birlariga savollar berish va javoblarini baholash orqali o'z

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iskandarova, Z., & Alimova, R. (2019). Interfaol ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi.
2. Xudoyorov, A., & Karimov, B. (2020). "Bumerang" metodining amaliy qo'llanilishi.
3. Rahimov, N. (2018). "Bumerang" metodining talabalar motivatsiyasi va faolligiga ta'siri.
4. Mamatov, Q., & Safarova, D. (2021). "Bumerang" metodining ta'lim samaradorligiga ta'siri.

bilimlarini mustaqil ravishda baholadilar. Bu jarayon ularga o'z bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash va zaif tomonlarini ko'rib chiqish imkoniyatini berdi. Talabalar o'z-o'zini baholash va refleksiya orqali bilimlarini yanada takomillashtirishga intildilar.

6. O'quv jarayonining samaradorligi oshdi. Metodning qo'llanilishi natijasida o'quv jarayonining samaradorligi oshdi. Talabalar bir-birlariga yordam berib, o'quv materialini yanada tez va samarali o'zlashtirdilar. O'qituvchi darsni nazorat qilish va talabalarining bilim darajasini baholash jarayonida yanada qulaylikka ega bo'ldi. Bu esa umumiy o'quv jarayonining samaradorligini oshirdi.

Muhokama: "BUMERANG" metodi o'quv jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, uning samaradorligi va foydaliligini chuqur o'rganish zarur. Bu metodning o'ziga xosligi shundaki, o'quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o'zlari ham faol ishtirok etadilar, o'rganmalarini qaytarish va boshqalarga o'rgatish orqali yanada mustahkamlashadi.

Birinchidan, "BUMERANG" metodi o'quvchilarni aktivlashtiradi va ularning dars jarayonida ishtirok etishlarini oshiradi. Bu metod o'quvchilarni faollikka, fikrlashga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undaydi. Natijada, o'quvchilar o'zlarining bilim darajasini va tushunish qobiliyatini mustaqil ravishda oshiradilar.

Ikkinchidan, bu metod o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi. "BUMERANG" metodida o'quvchilar turli topshiriqlarni bajarar ekan, ular o'z tasavvurlarini va yaratuvchanlik qobiliyatlarini kengaytiradilar. Bu jarayon o'quvchilarni yangi g'oyalar va yechimlar izlashga undaydi, bu esa ularning ijodiy salohiyatini oshiradi.

Uchinchidan, "BUMERANG" metodi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi. Ushbu metodda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonining ishtirokchisi sifatida qatnashadi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yaqinroq va samaraliroq muloqot o'rnatishga imkon beradi. Shuningdek, bu metod o'qituvchiga o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Shuningdek, "BUMERANG" metodining muhim jihati – bu guruhda ishlashni o'rganish va ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu metod orqali o'quvchilar birgalikda ishlashni, fikr almashishni va bir-birlarini qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar nafaqat o'quv jarayonida, balki kelajakdagi professional faoliyatda ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa: "BUMERANG" metodining o'quv faoliyatda qo'llanilishi ta'lim jarayoniga yangi va samarali yondashuvni taklif etadi. Ushbu metod o'quvchilarni faollikka undab, ularning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Metodning asosiy afzalliklari shundan iboratki, u o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijodkorligini oshiradi hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlaydi.

"BUMERANG" metodi orqali o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki o'z o'rganmalarini qaytarib, boshqalarga ham o'rgatish orqali yanada mustahkamladilar. Bu metodning qo'llanilishi guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa o'quvchilarning kelajakdagi professional hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, metodning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar tomonidan ijodkorlik va moslashuvchanlik talab etiladi, chunki har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish zarur.

Yakunda, "BUMERANG" metodi ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Bu metodning keng joriy etilishi va to'g'ri tatbiq etilishi o'quvchilarning zamonaviy talablar darajasida bilim olishlariga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, metodning muvaffaqiyati uchun o'qituvchilar va ta'lim muassasalarining doimiy qo'llab-quvvatlashi va resurslarni to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyatga ega.

5. Karimov, S. (2020). Innovatsion ta'lim metodlari va ularning ahamiyati. Toshkent: Fan va Texnologiya NMIU.
6. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent-2015. 10-b
7. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. Science and innovation, 2(B2), 282-286.

8. Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILİYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 48-52.

9. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(1), 3-9.

10. Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 41-47.

11. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Djo'rayeva Dildoraxon Rahmonaliyevna. (2023). BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9(9), 184-186.



JADID MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

Temirova Mashhura Muhammadaminovna

Qo'qon universiteti dotsenti

Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 24

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.962>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/
keywords

axloqiy qoida, tarbiya, Turkiy guliston yoxud axloq, fikr tarbiyasi, barkamol inson, pedagogika, insonparvarlik, xulq tarbiyasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik faoliyati va bugungi kundagi ta'lim tizimini rivojlantirishda ma'rifatchilik harakatlarining ahamiyati va pedagogik qarashlari hamda jadidlarda milliy g'oya va mafkura haqidagi masalalari chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Turkiston ma'rifatparvarlarining pedagogik faoliyati va ularning bugungi ta'lim tizimiga chuqur ta'siri har tomonlama tahlil etilgan. Shuningdek biz tadqiqotga metodologik yondashgan holda manbalardan ham to'laonli foydalandik. Shu sababli biz mazkur tadqiqotda jadidchilik harakatining muhim va asosiy bo'g'ini hisoblangan ma'rifatparvarlik faoliyatini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo'yilgan. Tadqiqot jarayonidagi o'rganilgan manbalar natijasida Turkiston jadidlarining pedagogik sohadagi harakatlari, ularni fanlarni o'qitish, o'quvchiga yetkazib berish borasidagi ilgari surgan g'oyalari har jihatdan fanlar meto'dikasiga mos kelishi ilmiy asoslandi. Xususan, yuqoridagi ilmiy asosga ega bo'lgan manbalarni o'rganish natijasida jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy me'rosi, pedagogik qarashlarini har qanday fanning meto'dikasi bilan bog'lagan holda bugungi ta'limga joriy etish, va ta'lim samaradorligini oshirishga katta hizmat qilishi aniq misollar tarzida ilmiy yangilik sifatida yoritilgan. Shuningdek, olingan natijalar asosida ta'lim tizimini ham didaktik asoslarini yanada chuqurlashtirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kirish. XXI asrning ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda tinglovchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Bugungi kunda respublikada ta'lim sohasini isloh qilish deganda faqatgina rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimidan andoza olish olish orqali ta'lim samaradorligiga erishish mumkin deb qaralmoqda. Aslida o'tmishimizga nazar solsak, jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, ularning ma'rifat-parvarlik faoliyatlari bugungi ta'lim sohasini chinakam yangicha isloh etish uchun muhim vazifasini bajara oladigan dasturilamal hisoblanadi. Prezidentimiz 2023 yil 22 dekabrda o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida jadid bobolarimizning milliy taraqqiyotni har tomonlama jadallashtirish, ziyoli va ijodkorlarni birlashtirishga daxldor tashabbuslari qatorida "Jadid" gazetasi ta'xis etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi hamda ushbu nashri yangi yilning birinchi kunida chop etish taklifini ilgari surdi¹. Mazkur gazetani tashkil etishdan asosiy maqsad jadid marifatparvarlarining faoliyatini ilmiy asosda yanada chuqurroq tahlil etish va buni bugungi kundagi yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda unumli foydalanish ko'zda tutilgan. Bu esa mavzuni dolzarbligini yanada oshiradi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning bu rivojlanishi shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan ta'lim jarayonida tinglovchi asosiy o'rin egallaydi. Hozirgi kunda ham o'tgan asrimizda ham ta'lim jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilgan. Xususan, jadidlarimizning nuqtayi nazarida millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'onishga e'tibor berishi turadi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim sohasida ta'kidlayotgan nutqlari, qonun va qarorlari jamiyatning har bir bo'g'ini uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlarning biz yoshlarga qoldirgan ulkan merosi bu ilk jadid maktablarini tashkil etib, o'zligimizni anglatgani, xalqimizni ma'rifatli qilib uni jaholat va ilmsizlik botqog'idan asraganidir. Prezidentimiz aytganidek: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz me'rosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"².

Adabiyotlar tahlili. Jadidchilikning ruhi va mazmunini o'zida bekamu ko'st namoyon etgan jadid adabiyotlari milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos ro'l o'ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalari

badiiyatga ko'ra u qadar yuksak emas, ya'ni 1910 yillarning oxiri, 1920 yillarning boshidagina har jihatdan to'laonli tadqiq etildi³. Darhaqiqat, zamonaviy adabiyot milliy ongni shakllantirish va modernizm mohiyatini qamrab olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi, chunki u zamonaviy jamiyatning murakkabliklari va nozik tomonlarini aks ettiradi. Mavzuga oid tadqiqotlarni o'tkazgan J.A.Urumbaev va U.Aleuovlarning ilmiy ishlari hamda "Qoraqalpog'istonning yangi tarixi" kitobida jadid maktabi, jadidchilik harakati borasidagi ishlar haqida ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi. Jadidchilar haqida ko'plab maqolalar, tadqiqotlar va ilmiy ishlar e'lon qilindi. Xususan, E.Karimov, S.Kosimov, O.Sharafiddinov, Sh.Turdiyev, X.Boltaboev, S.Xolboev, A. Nasriddinov, B.Ergashev, T.Berdiev, N. Karimov, B.Imomov, S.Axmedov, G.Ahmadjonov, Z.Eshmurodovlarning tadqiqotlarida jadidchilik harakatining ma'rifiy, siyosiy va dolzarb yo'nalishlari o'z aksini topa boshladi. Mazkur tadqiqotlarda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlar sohasi faoliyati faoliyatini turli bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davrlar va hududlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarning barchasida jadidlarning pedagogik qarashlari yaxlit chuqur tarzda tahlil tarzda etilmagan. Shu sababdan ma'rifatparvarlarning muhim va yirik tarmog'i hisoblangan pedagogik qarashlari soha faoliyati yaxlit tarzda tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida jadidchilik yo'nalishida tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, kabi usullardan foydalanildi. Mustaqillik yillaridan oldingi davrlarda Turkistonda jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlar mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: jadid ma'rifatparvarlari o'z davri uchun va keyingi davr uchun ham dars usullari, ko'nikmalari, jadid maktablari va uni qanday tashkil etish borasida yetarlicha ma'lumot qoldirgan. Shu jumladan, Jadidlardan so'ng o'rganilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ularning ilmiy me'rosini o'rganib yosh avlodga tatbiq etmoqda.

Tahlil va natijalar. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq"⁴ asarida, zamonaviy pedagog yetishtirish, yangi darsliklarni yaratish va ta'lim uslublari, ko'nikmalari uchun yangi majmualar yaratish keng o'rin olganligini ko'rishimiz mumkin. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik nuqtayi nazardan inson qadri bu o'z ona tilini mukammal bilishi, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish, milliy adabiy tilning taraqqiyoti uchun jonkuyarlik qilish zarur deyishadi. Ular

¹ <https://fledu.uz/2024-yilning-ilk-kunida-jadid-gazetasi-chop-etildi/>

² "Tarjimon" g., 1906-yil, 69-son. –B. 112.

³ Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, -2004, -T., Ma'naviyat. 183-bet.

⁴ "Tarjimon" g., 1906-yil, 69-son. –B. 112.

pedagogik jihatdan inson ilmida soʻzlashuv odobiga ham eʼtibor berishadi. Soʻzning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berishib, soʻz insonning daraja va kamolini, ilm va fazilatini oʻlchab koʻrsatadigan tarozisidir. Aql sohiblari kishilarni tilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar deydigan. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga boʻlgan munosabatidir. Yana shuni aytish kerakki, har bir insonning, millatning dunyoda borligini koʻrsatadigan oynavi hayoti til va adabiyotdir. Jadidlar milliy taʼlimning zamini sifatida ona tili oʻqitish masalasiga eʼtiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy maʼnaviyatni “sut bilan kirgan” deganlaridek faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin. Tadqiqotdan olingan aniq natijalar shuni koʻrsatadiki, Oʻrta Osiyo jadidlarining pedagogik qarashlari yaʼni oʻquvchilarga bilimlarni yetkazib berish borsidagi fikrlari bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan har bir jamiyatning maʼrifatchilik sohasi boʻyicha muhim dasturilamal boʻlib xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrimiz dalili sifatida milliy gʻoya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tartibiga qoʻyilgan. Jadidlar millatning taraqqiyotinigina emas, yashash, hatto uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda koʻrdilar. “Milliyat fikriga, bu azim quvvatga hech bir kuch bas kela olmadi”, - deb yozgan edi Yusuf Qochura”⁵.

Muhokama. Jadidlarimiz oliy oʻquv yurtining zaruratini teran his qildilar va barcha imkoniyatlardan foydalanishga urindilar. Ular soʻnggi uch-toʻrt asr davomida tushkun holga tushib tarixni unutyozgan millatimizga tarix shuurini singdirishga va u orqali yangi ruh baxsh etishga urindilar. Darhaqiqat, milliy shuurni tarix shuuri maydonga keltiradi. Tarix shuuri esa tarixni tanimoqdir⁶. Avloniy shaxs kamoloti va milliy oʻzlikni anglashning tamal toshi sifatida ona tilini puxta egallash muhimligini taʼkidlaydi. Avloniy va boshqa zamonaviy maʼrifatparvarlarning fikricha, ona tilini ravon soʻzlash insonning qadr-qimmatini va qadr-qimmatini, milliy adabiy anʼanani rivojlantirishga daxldorligini koʻrsatadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida oʻzbek jamiyatining madaniy-intellektual manzarasini shakllantirishda zamonaviy pedagogik taʼlimning hal qiluvchi roli koʻrsatilgan. Avloniy shaxs kamoloti va milliy oʻzlikni anglashning tamal toshi sifatida ona tilini puxta egallash muhimligini taʼkidlaydi. Avloniy va boshqa zamonaviy maʼrifatparvarlarning fikricha, ona tilini ravon soʻzlash insonning qadr-qimmatini va qadr-qimmatini, milliy adabiy anʼanani rivojlantirishga daxldorligini koʻrsatadi. Pedagogik nuqtai nazardan Avloniy insonparvarlik qadriyatlarining inʼikosi sifatida nafosatli soʻzlashuv odoblarini tarbiyalashning ahamiyatini taʼkidlaydi. Uning taʼkidlashicha, til shunchaki muloqot vositasi emas, balki insonning aql-zakovati, bilimi va axloqiy fazilatlarini oʻlchovidir. Avloniyning til va madaniyatga muhabbatga urgʻu berishi til va milliy oʻzlikni anglash oʻrtasidagi chuqur bogʻliqlikni taʼkidlab, uni shaxs va jamoa ongining ajralmas jihatlari sifatida koʻrsatadi. Jadidlarning ona tilini milliy taʼlimning asosi sifatida oʻrgatish targʻiboti Avloniy qarashlari bilan hamohang boʻladi, chunki ular milliy maʼnaviyat va maʼnaviyat goʻdaklikdan tilga chuqur singib ketgan, deb hisoblaganlar. Til va madaniy merosga boʻlgan bunday eʼtibor zamonaviy mutafakkirlarning tilga milliy qadriyatlar va oʻzlikni avlodlarga yetkazuvchi vosita sifatida qaragan fundamental pedagogik

Adabiyotlar roʻyhati:

1. <https://fledu.uz/uz/2024-yilning-ilk-kunida-jadid-gazetasi-chop-etildi/>
1. “Tarjimon”g , 1906-yil, 69-son. –B .112.
2. Qosimov. B Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti,-2004,-T.,Maʼnaviyat.183-bet.

tamoyillarini aks ettiradi. Qolaversa, Avloniy va uning zamondoshlari tarixiy ongni milliy tiklanish uchun zarur deb bilishgan. Aholiga tarix tuygʻusini berish orqali ular yangilangan gʻurur va maqsad tuygʻusini singdirishni maqsad qilganlar, shu bilan madaniy uygʻonish uchun zamin yaratdilar. Avloniyning milliy ong tarixni anglashdan kelib chiqadi, degan fikri jamoaviy oʻzlikni shakllantirishda oʻtmish, hozirgi va kelajakning oʻzaro bogʻliqligini taʼkidlaydi. Avloniy ijodi va zamonaviy maʼrifatparvarlarning pedagogik qarashlari til, madaniyat va milliy oʻzlikni anglash oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni taʼkidlaydi. Ularning til bilimi, madaniy gʻurur va tarixiy ongni rivojlantirishga qaratilgan saʼy-harakatlari oʻzbek jamiyatida ijtimoiy va intellektual taraqqiyotni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan kengroq majburiyatni aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Mustaqillikning dastlabki yillarida jadidlar yoʻnalishida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilingan va hozir ushbu yoʻnalishida davom etmoqda. Jadidlarning pedagogik qarashlari va saʼy-harakatlari hozirgi zamon jamiyati bilan hamohang boʻlib, zamonaviy dunyo murakkabliklarini yoʻlga qoʻyishda ilhom va yoʻl-yoʻriq manbai boʻlib xizmat qiladi. Ularning tamoyillarini qabul qilish va ularni hozirgi sharoitlarga moslashtirish orqali biz ularning merosini qoʻllab-quvvatlashda va taʼlim va ijtimoiy taraqqiyot yoʻlida davom etishimiz mumkin. Yangi taʼlim dasturlari va oʻquv qoʻllanmalarini yaratishda jadidlarning pedagogik qarashlari va metodikasini qoʻllash zarur. Oʻqituvchilarning malakasini oshirish kurslarida jadid maʼrifatparvarlarning ilmiy meʼrosini oʻrganish va uni taʼlim jarayoniga qoʻllashga yoʻnaltirilgan dasturlarni tatbiq etish. Jadidlarning didaktik yondashuvlarini hisobga olgan holda yangi oʻquv materiallari va didaktik qoʻllanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Jadidlar tomonidan qoʻllanilgan interfaol va innovatsion taʼlim usullarini bugungi taʼlim jarayoniga keng joriy etish muhim. Yuqoridagi misollar jadid maʼrifatparvarlarining ilmiy merosi va pedagogik qarashlarini zamonaviy taʼlim tizimiga joriy etish orqali taʼlim samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy asoslab beradi. Bu yondashuv, shuningdek, taʼlim tizimining didaktik asoslarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Jadid mutafakkirlarning ilmiy merosini oʻrganish imkoniyatlari koʻp boʻlishiga qaramay, bugungi kunda ularning jamiyatdagi taʼsiri va nufuzi asta-sekin ortib bormoqda. Shuni bilar birga, bu ularning hissalarining ahamiyatini yoki pedagogik tushunchalarining dolzarbligini kamaytirmasligi kerak.

Ushbu mulohazalar asosida quyidagi takliflarni koʻrib chiqish zarur:

1. Merosni asrab-avaylash: Jadidlar merosini asrab-avaylash va targʻib qilish, ularning oʻgʻitlari va yutuqlarini unutmaslik, balki taʼlim-tarbiya taraqqiyotining poydevori sifatida nishonlanishini taʼminlashga harakat qilish kerak.
2. Qadriyatlar integratsiyasi: Jadidlar tomonidan ilgari surilgan axloqiy va axloqiy qadriyatlar taʼlim tizimiga singdirilishi, oʻquvchilarda mehr-oqibat va ijtimoiy masʼuliyat madaniyatini tarbiyalash zarur.
3. Usullarni modernizatsiya qilish: Anʼanaviy pedagogik tamoyillarga rioya qilgan holda, taʼlim usullarini hozirgi davrning oʻzgaruvchan ehtiyojlari va muammolariga moslashtirish va modernizatsiya qilish zarurati mavjud.

3. “Tarjimon”g , 1906-yil, 69-son. –B .112.
4. Qosimov. B Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti,-2004,-T.,Maʼnaviyat.105 -bet.
5. Qosimov. B Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti,-2004,-T.,Maʼnaviyat.123-bet.

⁵ Qosimov. B Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti,-2004,-T.,Maʼnaviyat.105 -bet.

⁶ Qosimov. B Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti,-2004,-T.,Maʼnaviyat.123-bet.



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIY VA MAFKURAVIY OMILLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Yusupov Axrorjon Qurbonovich

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Tel.99891-156-96-30

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p>Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil Jurnal soni: 11 Maqola raqami: 25 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.963</p> <p>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</p> <p>Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura, inson manfaatlarini, siyosiy faoliyat, siyosiy ong, lobblizm, fuqaroviy faollik.</p>	<p>Mazkur maqolada Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohatlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan N.A.Saidqulov, X.I.Abduraxmonovlar tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda O'zbekistonda yoshlar siyosiy faolligi, siyosiy madaniyatini, ma'naviy-mafkuraviy omillarini rivojlantirish o'rganilgan. A.A.Jalilov, A.Z.Sharipov tomonidan esa yoshlarning innovatsion-kreativ yondashuvlari mustaqillik yillardagi jarayonlari umumiy tarzda tahlil etilgan. Mazkur ishimizda yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotchilarning ishlari muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli biz mazkur maqolada yoshlarning jamiyatimiz boshqaruvida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo'ydik. Shuningdek maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridagi respublikadagi va hozirgi kunda yoshlarga etibor aniq tahlillar asosida qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek olingan tahlil natijalari asosida yoshlar faolligini rivojlantirish, samaradorligini oshirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.</p>

Kirish: Jahon miqyosida yoshlar siyosiy faolligi rivojlanishining samarali omillarini qamrab olgan, ijtimoiy-siyosiy, diniy, milliy va boshqa turdagi qadriyatlariga asoslangan, jamiyatda ishonch omilini mustahkamlovchi fenomen sifatida mafkura omilini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda yoshlar siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning o'rni tobora ortib borayotganligi hech kimga sir emas. Ilm o'rganish, ma'lumot olish uchun sharoit yaratib berayotgan axborot texnologiyalari, jumladan, Internet ham muammolar manbaiga aylanib borayotganini ta'kidlash zarur. Shu bois hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish bilan ishlashning yangicha modellarini yaratish hamda ularni amalga oshirishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni yaratishga oid ko'plab ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishni ma'naviy va mafkuraviy qadriyatlar uyg'unligida amalga oshirishni davr taqozo qilmoqda. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ong-u tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan o'txamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinlar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!"¹, deya aytilgan e'tirof orqali ham anglashimiz mumkin. Shuningdek, hozirda rivojlanishning yangi davrini boshlagan mamlakatimiz uchun milliy mafkura konsepsiyasini yanada takomillashtirish va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini zamonaviylashtirish, uni sistemali tarzda yangilab borish ushbu muammoni o'rganishning ahamiyatini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini

sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqolaga muayyan darajada xizmat qiladi.

Yoshlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari haqidagi ilmiy asoslangan xulosalar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruza hamda nutqlarida aks etgan. Ushbu manbalar tadqiqot ishiga nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlari va madaniyatini rivojlantirish masalalariga oid tadqiqotlar ming yillik tarixga borib taqaladi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, dastavval, qadimgi mutafakkirlar, jumladan, siyosatshunoslik faniga tamal toshini qo'ygan Konfutsiy, Platon, Aristotel va Abu Nasr Forobiy asarlarida uchraydi². Mazkur asarlarda garchi siyosiy madaniyat kategoriyasi ishlatilmagan bo'lsa-da, mutafakkirlar bilvosita siyosiy madaniyatga oid fikrlarni ilgari surganlar.

Adabiyotlar tahlili: Siyosatshunoslik faniga "siyosiy madaniyat" tushunchasining kirib kelishi nemis faylasufi Iogan Gerder (1744-1803 y.) nomi bilan bog'liq³. G'arbda "siyosiy madaniyat" kategoriyasining ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishini A.Almond va S.Verba boshlab bergan. G.Almond siyosiy madaniyatni "bu siyosiy tizimlarni ham o'z ichiga oluvchi siyosat ob'yektlariga nisbatan yo'naltirilganlikning o'ziga xos namunasi"dir, deb ko'rsatgan bo'lsa, S.Verba uni "siyosiy institutlar va siyosiy xulq-atvor ko'rinishlari to'g'risidagi e'tiqod tizimidir", deya ta'riflagan. G'arbda siyosiy madaniyat fenomenini tadqiq etishda A.Almond va S.Verbadan tashqari L.Pay, M.Veber, U.Razenbaum, D.Divayn kabi tadqiqotchilarning ham hissi katta.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da yoshlarning siyosiy madaniyatini va jamiyat barqarorligi masalalari M.Keyzerov, V.Abernikov, A.Averkin, Y.Ageshin, Y.Y.Meleshkina, O.A.Tolpgina, V.N.Gulyaixin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁴. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati siyosiy madaniyatning mohiyati, uning genезisiga bag'ishlangan.

Mamlakatimizda siyosiy madaniyat bo'yicha B.To'ychiyev, U.Muxammadiyev, X.Odilqoriyev va Sh.G'oyibnazarov kabi olimlar tadqiqot olib borishgan, ular siyosiy madaniyatga "Ijtimoiy sub'yekt (jamiyat, guruh, shaxs)ning kuchlarini vujudga keltirish hamda ularni ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, uning maqsadlarida, vositalarida, usullarida

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида "Ижтимоий барқарорлиқни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. <http://uz.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-dir-i-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>

²Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жилдлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996 - 2016.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисига Мурожаатномаси. Т.: Ўзбекистон, 2018. – 80 -б;.

⁴Политический процесс: основные аспекты и способы анализа. Москва. 2001 стр.111; Гуляихин В.Н. Россия фуқароларининг сиёсий маданиятининг аркетиплари // Социодинамика. - 2013. - № 1. стр. - 153 - 170.

va natijalarida ro'yobga chiqarish jarayonini ifoda etadi. U insonning ijtimoiy munosabatlarini o'zgartirish sub'yekti sifatidagi ijtimoiy rivojlanish mezonini ochib beradi", deya ta'rif berishgan. Jumladan, B.To'ychiyevning fikricha, siyosiy madaniyat – ijtimoiy ong va umumiy madaniyatning siyosiy institutlari hamda siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan qismi va jihatlari qamrab oladi⁵. U.Muhammadiyev esa siyosiy madaniyatga fuqarolar, muayyan ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, elat, xalqning siyosiy hayotga bo'lgan munosabatida amal qiladigan qoidalar, taomillar, ijtimoiy hamda siyosiy mas'ullik hissi majmui sifatida qaraydi⁶.

O'zbekistonda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning turli xil yo'nalish va komponentlarini Sh.Paxrutdinov N.Jo'rayev, I.Ergashev, T.Odilqoriyev, Sh.G'oyibnazarov, B.Tuychiyev, A.Jalilov, S.Jo'rayev, A.Qodirov, U.Idirov, I.Saifnazarov, M.Qirg'izboyyev, N.Umarova, T.Alimardonov, O.Jumayev, V.Kim, B.Iminov, G.Sherniyozova, L.Tangriyev, A.Xaydarov, U.Muxammadiyev, O.Musayev, N.Shodiyev, Sh.Raximov kabi olimlar o'rganishgan. Ularning ishlarida siyosiy madaniyat siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Xususan, siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayevning ta'kidlashicha, "Siyosiy madaniyat, siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokingin qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z hayotlariga daxldor bo'lgan ma'muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada, qarorlar ijrosi uchun o'zlarini manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi". Fikrimizni davom ettirib, shuni aytish kerakki, N.Jo'rayev o'zining "Tarix falsafasining nazariy asoslari" nomli monografiyasida "Demokratiyaning siyosiy madaniyati" deganda, aholining siyosiy faoligi darajasini ko'zda tutib, jamiyatda siyosiy madaniyatning shakllanishi siyosiy muhitga bevosita bog'liq, deb ta'kidlaydi⁷.

Mazkur ishlarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, ularidan keyingi o'tgan vaqt davomida bu borada mamlakatimiz yoshlari hayotida ulkan ahamiyatga molik islohotlar, tub o'zgarish va yangilanishlar amalga oshirildi.

Shunday qilib, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, lekin bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy faollikni rivojlantirish bilan mafkura o'rtasidagi dialektik aloqadorlik masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Maqolada aynan fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillarini aniqlash, bu jarayonda milliy mafkura rolini kuchaytirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullardan foydalanildi. Mustaqillik yillarida va keyingi davrlarda O'zbekistonda yoshlar siyosiy faolligining mafkuraviy omillarini tashkil etishning huquqiy asoslarini tashkil etishning huquqiy asoslarining mustahkamlanib borishi mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, ilmiylik va tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlash uchun "ko'ngilli yoshlar", "yosh islohotchi", "yosh siyosatchi" kabi guruhlarni ta'lim tizimida tashkil etish orqali yoshlar ongiga siyosiy mafkura, siyosiy an'analar, siyosiy tajribalar, siyosiy plyuralizmga oid qarashlarni singdirish, ularni Vatanga nisbatan daxldorlik, mas'uliyat va fuqarolik tuyg'usining yuksalishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalari: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, asosiy vazifa – insonparvar, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat bo'ldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson uchun, uning kelajagi uchun degan ezuq tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan har bir islohot, albatta, har bir fuqarodan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faollikni talab etadi.

Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda

chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat hamda adolatli jamiyat barpo etishdan iborat⁸.

Siyosiy faoliyat – bu muayyan jamoaning jamoaviy manfaatlarini shakllantirish va amalga oshirishdan iborat bo'lgan sub'yektlarning faoliyati. Bunday maxsus manfaatlarini ifodalovchi muhim materiallar va intellektual resurslarga ega bo'lgan guruhlar – elita guruhlar hisoblanadi. Ijtimoiy elitalar siyosiy aloqalarni o'rnatishning o'ziga xos usuliga ega va bu maqsadga erishishga faol intilishadi.

Fuqaroviy faollikni faollik nuqtayi nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin. Fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa, u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakllangan bo'lsa, uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin. Agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa, uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

Aynan ana shu so'nggi pog'onaning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi. Faol fuqaro guruhiga mansub kishilar siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari ularda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat hamda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi⁹.

Siyosiy faollik tushunchasiga huquqshunoslar tomonidan berilgan ta'rifda siyosiy faollik – bu ijtimoiy-siyosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, saylovchilarning siyosiy jarayonlarga ishtirok etish darajalari va shakllaridir, deyiladi¹⁰.

Psixologiya sohasida siyosiy faollik bu fuqarolarning hokimiyat bilan munosabatlarda ishtirok etish usullari deyiladi¹¹.

Siyosatshunoslikda esa siyosiy faollik shaxs va ijtimoiy guruhlarning o'z siyosiy mavqeyini yoki siyosiy atrof-muhitini o'zgartirishga qaratilgan harakatlardir, deyiladi. Siyosiy faollik tushunchasi amaliy va aqliy tarkibiy qismlarni o'zida birlashtiradi, amaliy jihatdan siyosiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, aqliy jihatdan siyosiy bilim va tajribalarni to'plash, o'zaro shaxs yoki guruhlarning ma'lumot almashish masalalaridan iboratdir. Siyosiy faollik siyosiy faoliyatdagi o'zaro munosabatlarda, siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Shaxsiy munosabatda shaxsning manfaatiga va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadigan turmush tarzini o'zgartirish bilan bog'liq siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki tushuniladi¹².

Siyosiy faollik – jamiyat siyosiy hayotidagi muhim masalalarda jamoaviy maqsadlarga erishish uchun fuqarolar harakatlarining umumiyligidir. Ijtimoiy faollikning funksional-tarkibiy tahlilida, jamoaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy guruhlar sinfiy maqsadlariga erishishda ham namoyon bo'ladi.

Faollikning eng oddiy shakli bu siyosatga qiziqishdir. Bundan faolroq shakli bu mitinglarda ishtirok etish, nutq so'zlash, siyosiy partiyalar faoliyatida faol ishtirok etish, siyosiy-ijtimoiy markazlarning faol a'zosi bo'lish, turli ijtimoiy loyihalarda qatnashish, turli ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylovlarda muntazam ovoz berishdir. Bugungi globalashuv jarayonida internet tizimida ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi yuqoridagi faoliyatlarni bevosita to'g'ridan-to'g'ri onlayn amalga oshirish imkonini beradiki, bu ham fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning yanada faollashishiga turtki bo'ladigan "onlayn faollik" jumlasini keltirib chiqaradi. Onlayn siyosiy faollik bu – faol fuqarolarning turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib ommaviy murojaat qilishda qatnashish, saylovlarda onlayn qatnashish, siyosiy jarayonlarni turli tarmoqlarda do'stlar bilan muhokama qilish, turli davlat ahamiyatiga molik dasturlar va boshqa masalalarda faol ishtirok etish hamda o'z xohish, istaklarini namoyon qilishidir.

Siyosiy faollik borasida turli xil nazariy va amaliy ta'riflar o'rganilganda, shunday xulosaga kelinadi, ya'ni ularning bari fuqarodan faollikni talab qiladi.

Jumladan, jamiyatda fuqarolarning siyosiy faolligi ikki xil kategoriyaga bo'linadi. Birinchi kategoriya bu saylov jarayonlaridagi targ'ibotlarda ishtirok etish, saylovlarda ovoz berish va lobbitik faoliyatlarda ishtirok etishdir.

Ikkinchi kategoriya esa bir necha turdagi siyosiy faollik bo'lib, bu

⁵Тўйчиев Б.Т. "Политическая культура и демократизация общества".

Т., 2009г. монография. из.УЗМУ

⁶Мухаммадиев У.Н. "Ўзбекистонда сиёсий маданият ва миллий маънавиятнинг ўзаро муносабати муаммоси". Дисс.сиё. фан. ном. Тошкент. УРПҲСМТИ, 2002. -104-б.

⁷Жўраев Н. "Тарихи falsafasining nazariy asoslari" Тошкент: 2008. 48 б.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йилнинг 19

сентябрда Бирлашган Миллатлар Ташкилати Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // <http://uz.uz-uz.uz-uz.uz-uz> Миллий ахборот агентлиги. 20.09.2017.

⁹Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма / А.Жалилов, У.Мухаммадиев, Қ.Жўраев ва бошқ. – Тошкент, 2015. – 264 б. – Б. 86.

¹⁰https://yuridicheskaya_encyclopedia.asademic.ru/

¹¹https://politisaal_psychology.asademic.ru/

¹²Политология. Словарь. – М.: РГУ. В.Н.Коновалов, 2010.

demonstratsiya, ommaviy harakatlar, biror bir faoliyat bo'yicha ish tashlashlar, boykot e'lon qilish, siyosiy zo'ravonlikka qarshi harakatlar, protestlar uyushtirish kabilardan iboratdir.¹³

Siyosiy faollikning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bu lobbizm harakatlaridir. Lobbizm (inglizcha lobby – kularlar, xos xonalar)¹⁴ – o'ziga xos faoliyat turi bo'lib, fuqarolar yoki nodavlat tashkilotlari vakillarining davlat organlari tomonidan tegishli qaror qabul qilinishida maqsadli ta'siridir.

Siyosiy madaniyat esa o'z ichiga siyosiy bilimlar doirasidagi an'analar, qadriyatlar, siyosiy xulq-atvorlar birligini mujassam etganligi bois, uning mavjudligi davlat va jamiyatning taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilishini bildiradi. Ammo bu jarayon murakkab va xilma-xillik xususiyatiga ega. Chunki siyosiy tizimlar, an'analar har bir xalq, millat uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy madaniyat va unga ta'sir etuvchi mafkuraviy omillar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni o'rganish ancha murakkab ish hisoblanadi. Shunga ko'ra, tadqiqotda ishni, eng avvalo, mazkur tushunchalar mazmun-mohiyatini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar: Biz bugun Yangi O'zbekiston jamiyatini qurish yo'lida harakat qilmoqdamiz. Shu bois har bir fuqaro taraqqiyot strategiyasini bilmog'i, anglamog'i va uni hayotga joriy etmoq uchun o'zining bor imkoniyatlarini shu ishga safarbar etmog'i lozim.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotining demokratlashuvida har qanday yoshlardan faollik talab etiladi, chunki fuqaroning o'zi yashash uchun qulay bo'lgan muhitni yaratishga intilishi, mavjud ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal etish yo'llarini

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь кuni Тошкент шаҳрида “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>
2. Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жилдлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996 - 2016.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т.: Ўзбекистон, 2018. – 80 -б.;
4. Политический процесс: основные аспекты и способы анализа. Москва. 2001.стр.111; Гуляихин В.Н. Россия фуқароларининг сиёсий маданиятининг аркетиплари // Социодинамика. - 2013. - № 1. стр. - 153 - 170.
5. Тўйчиев Б.Т. “Политическая культура и демократизация общества”. Т., 2009г. монография. из.УЗМУ
6. Мухаммадиев У.Н. “Ўзбекистонда сиёсий маданият ва

билishi, shu yo'lda tashabbuskorlik ko'rsata oladigan fuqaro faol fuqaroga aylanadi.

Yoshlarda dunyoqarashning o'zgarishi bu bevosita ijtimoiy hayotning ham o'zgarishidir. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar bu fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolroq ishtirok etishiga bog'liqdir. Agar fuqarolar jamiyatda demokratiyani yuksak qadriyat deb bilib, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etsa, bunday jamiyat barqaror jamiyatga aylanadi. O'z-o'zidan faollik ham kuchayadi. Demokratik jarayonlar va fuqarolarning siyosiy faolligi o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Shunday ekan, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyat hayoti yanada demokratlashtiriladi. Demokratik jarayonlarda fuqarolarning faollik darajasi siyosiy jarayonlarning bir mezonini bo'lib xizmat qiladi. Faollik darajasi qanchalik oshgani sari fuqarolarning jamiyat oldidagi mas'uliyati ham oshib boradi.

Siyosiy faol fuqaro o'zi bilan birga jamiyat a'zolarini ham ergashtiradi, jamiyatning demokratik institutlari orqali jamoaviy guruhlarining ehtiyoj va manfaatlariga birgalikda echim topadi, bu esa faollikning tezlashuvini anglatadi. Ayniqsa, bugungi shiddatli rivojlanish jarayonida siyosiy faollikni oshirishda innovatsion-ijtimoiy g'oyalarni qo'llash davr talabidir, ya'ni onlayn demokratiya tizimini qo'llash fuqarolarning faollashishiga turtki bo'ladigan o'ziga xos omillardandir. Siyosiy jarayonlarda siyosiy faollikni kuchaytirish uchun, avvalo, fuqarolarda siyosiy ong, ishonch va natijadorlik mavjud bo'lishi lozim. Siyosiy faollik mavjud jamiyatda jamiyat demokratlashuvi kuchayadi.

миллий маънавиятнинг ўзаро муносабати муаммоси”. Дисс.сиё. фан. ном., Тошкент. ЎРПҲСМТИ, 2002. -104-б.

7. Жўраев Н. “Тарих фалсафасининг назарий асослари” Тошкент: 2008. 48 б.

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йилнинг 19 сентябрида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // <http://uza.uz-ЎЗА-Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. 20.09.2017>.

9. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма / А.Жалилов, У.Мухаммадиев, Қ.Жўраев ва бошқ. – Тошкент, 2015. – 264 б. – Б. 86.

10. https://yuridicheskaya_encyclopedia.asademic.ru/

11. https://political_psychology.asademic.ru/

12. Политология. Словарь. – М.: РГУ. В.Н.Коновалов, 2010.

13. Жиро Т. Политология. – Харьков, 2006. – 428 с. – С. 90.

14. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 5-том. – Т., 2003. – 300-б.

¹³Жиро Т. Политология. – Харьков, 2006. – 428 с. – С. 90.

¹⁴“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 5-том. – Т., 2003. – 300-б.



HOW TO IMPROVE LISTENING SKILLS OF BOTH ESL AND EFL STUDENTS

Mokhlaroyim Mukhtorova,

Teacher, Kokand University

E-mail: moxlaroyimuxtorova5@gmail.com

Ilxomov Xojiakbar Iqboljon o'g'li

Student, Kokand University

Email: ilhomovkhojiakbar@gmail.com

Tel: +998910554715

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 26

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.964>

KALIT SO‘ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

ESL, EFL, listening skills, language learning, technology in education, digital tools, listening comprehension, pronunciation

ANNOTATION

This article examines a range of effective methods to improve the listening skills of ESL (English as a Second Language) and EFL (English as a Foreign Language) students. Listening is a fundamental aspect of language acquisition and proficiency, yet many learners find it challenging due to factors such as limited exposure to the target language, variations in accents, and rapid speech rates. This study highlights simple, practical strategies that can be seamlessly integrated into daily routines to enhance listening abilities. Key methods include consistent practice with diverse and engaging audio materials, the strategic use of digital technologies, and the implementation of interactive and passive listening activities. Additionally, this article explores the benefits of modern digital tools, such as language learning apps, podcasts, and vodcasts, which provide flexible and accessible platforms for continuous learning. By leveraging these tools, students can create a personalized and immersive listening environment that promotes active engagement and gradual improvement. The anticipated outcomes of this study include improved listening comprehension, increased vocabulary, better pronunciation, and heightened confidence in real-world communication scenarios. The findings aim to provide educators and learners with actionable insights and practical approaches to overcome common listening challenges in language learning.

Introduction. Listening is a critical skill, which is fundamental in effective communication, information acquisition and language learning. For ESL (English as a Second Language) and EFL (English as a Foreign Language) students, proficient listening skills are crucial for understanding and interacting in English-speaking environments. Listening competence does not only enhance conversational abilities but also supports overall language development, including speaking, reading, and writing skills. Despite its importance, improving listening skills can be particularly challenging for language learners. Several factors contribute to these difficulties, including limited exposure to native speakers, the diversity of English accents, variations in pronunciation, and the rapid pace of spoken language. Moreover, traditional language learning environments may not provide sufficient opportunities for extensive listening practice, further hindering the development of this essential skill. To address these challenges, this article investigates a variety of methods designed to enhance the listening skills of ESL and EFL students. The study focuses on practical strategies that can be easily incorporated into daily routines, making them accessible and sustainable for learners at different proficiency levels. Emphasis is placed on the integration of modern digital technologies, which offer flexible and cost-effective solutions for language practice. Digital tools, such as language learning apps, online courses, podcasts, and vodcasts, provide learners with diverse and engaging listening materials that can be accessed anytime and anywhere, facilitating consistent and immersive learning experiences. Furthermore, this article explores the benefits of both interactive and passive listening activities. Interactive methods, such as participating in language exchange programs, joining discussion groups, and using language learning apps with interactive features, encourage active engagement and immediate feedback. Passive listening techniques, such as playing English audio in the background during daily activities, help learners become accustomed to the rhythm and intonation of the language, gradually improving their comprehension and pronunciation. The objective of this research is to identify and validate effective approaches to listening practice that can lead to measurable improvements in students' listening comprehension and overall language proficiency. By examining existing literature, analyzing case studies, and proposing new methodologies, this article aims to provide educators and learners with practical tools and insights to enhance the listening skills of ESL and EFL students. The anticipated results include increased confidence in real-world communication, a broader vocabulary, more accurate pronunciation, and a deeper understanding of spoken English. Through this comprehensive investigation, the article seeks to contribute to the field of language education by offering evidence-based

recommendations for improving listening skills. These insights will be valuable for language teachers, curriculum designers, and learners themselves, helping to create more effective and engaging language learning experiences.

Literature Review. The study of listening skills in the context of ESL (English as a Second Language) and EFL (English as a Foreign Language) education has garnered significant attention over the past few decades. Various researchers have explored effective methods and technologies to enhance these skills, recognizing their critical role in language acquisition and communication. Listening is recognized as a foundational skill in language learning, essential for effective communication and comprehension. According to Richards (2008), listening is a key component of language proficiency, providing the basis for successful speaking, reading, and writing¹. Vandergrift and Goh (2012) emphasize that listening is not a passive activity but an active process that involves predicting, inferring, and confirming meanings². ESL and EFL learners often face numerous challenges in developing listening skills. Flowerdew and Miller (2005) identify several obstacles, including unfamiliar accents, fast speech rates, and the lack of visual cues that aid comprehension³. Additionally, limited exposure to authentic listening materials in classroom settings can hinder learners' progress. Traditional approaches to teaching listening skills often involve classroom-based activities, such as listening to recordings and answering comprehension questions. However, these methods may not provide sufficient practice or exposure to diverse accents and speech patterns. Brown and Yule (1983) argue that traditional methods can be restrictive and fail to engage learners effectively⁴.

In contrast, modern approaches leverage digital technologies to provide more interactive and flexible learning experiences. Podcasts, vodcasts, and language learning apps offer learners access to a wide range of authentic listening materials, catering to different interests and proficiency levels. Kukulska-Hulme (2009) highlights the potential of mobile learning to transform language education by making it more accessible and personalized⁵. Digital tools have revolutionized the way listening skills are taught and practiced. According to Rosell-Aguilar (2007), podcasting provides an innovative platform for language learners to improve their listening comprehension by exposing them to varied and authentic content⁶. Similarly, mobile applications and online courses offer interactive features, such as instant feedback and adaptive learning paths, which enhance the learning experience. Merzifonuoğlu and Gonulal (2018) discuss the advantages of using digital language learning tools, noting that they promote learner autonomy and motivation. These tools allow students to practice listening at their own pace and choose materials that interest them, leading to more consistent

and enjoyable learning⁷. The literature also distinguishes between interactive and passive listening techniques. Interactive listening involves active engagement with the material, such as participating in discussions or using language learning apps with interactive elements. Goh and Taib (2006) suggest that interactive listening activities help develop critical listening skills, such as inferencing and summarizing⁸. Passive listening, on the other hand, involves listening to English audio in the background during daily activities. According to Krashen (1985), passive listening can be an effective way to increase language exposure and improve comprehension over time⁹. This technique allows learners to become familiar with the sounds and rhythms of the language without the pressure of immediate understanding. The integration of artificial intelligence (AI) and machine learning in language education presents new opportunities for enhancing listening skills. AI-powered tools can provide personalized feedback and adapt to individual learning needs, making language practice more effective. Research by Wang and Young (2014) suggests that AI can significantly improve language learning outcomes by offering tailored and adaptive learning experiences¹⁰.

It is obvious that the literature underscores the importance of listening skills in language learning and highlights the benefits of using modern digital tools and varied listening techniques. By incorporating these insights, this article aims to propose effective strategies for improving the listening skills of ESL and EFL students, leveraging technology and interactive learning methods to overcome traditional challenges.

Mashina va uskunalarning fond samarasi, ming so'm	3,57	2,24	-1,33	62,8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada asosiy aktivlardan samarasiz foydalanilgan, ya'ni asosiy aktivlarning fond samarasi 2021 yilga nisbatan 0,90 ming so'mga yoki 37,6 foizga, shu jumladan, mashina va asboblarning fond samarasi tahlil etilayotgan yillarda 1,33 ming so'mga yoki 37,2 foizga pasaygan.

Ushbu tahlil asosiy aktivlar va fond samarasining Tovar mahsulot o'zgarishiga ta'sirini aniqlashi kerak.

$$67267 \cdot 2,4 = 161713,27 \text{ ming so'm}$$

Shunday qilib, asosiy aktivlar qiymatining o'zgarishi hisobiga tovar mahsuloti 161713,27 ming so'mga oshdi.

B) Asosiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishining tovar mahsuloti hajmining o'zgarishiga ta'siri.

$$-0,90 \cdot 50566072,5 = -45509465,25 \text{ ming so'm}$$

Shunday qilib, asosiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati va fond samarasining o'zgarishi hisobiga tovar mahsuloti 45509465,25 ming so'mga kamaydi.

Keling, umumiy ta'sirni hisoblaylik:

$$161713,27 + (-45509465,25) = -45552357,1 \text{ ming so'm}$$

Shunday qilib, ikki omil ta'sirida tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 45552357,1 ming so'mga kamaydi.

Korxonaning asosiy aktivlari harakatining tahlili

Asosiy aktivlarni takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish uchun ularning ish holatini, eskirish darajasi va ulardan foydalanishni tavsiflovchi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. [10].

Asosiy aktivlarning eskirishi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Asosiy aktivlarni takror ishlab chiqarish tezligini tavsiflash uchun ularning jismoniy va texnik holatini o'rganishda yangilanish koeffitsienti qo'llaniladi.

Korxonaning asosiy aktivlari harakatining tahlili.

Jadval № 3

Asosiy aktivlar	Yil boshida		O'rnatildi	Olib tashlandi	Yil oxirida		farqi	
	Ming so'm	%			Ming so'm	Ming so'm	%	Ming so'm
Ishlab chiqarish asosiy aktivlari	50312436	99,1	1051804	1496641	49867599	99,0	-444837	-0,17
Noishlab chiqarish asosiy aktivlari	435420	0,9	88504	7234	516690	1,0	81270	0,17
Jami	50747856	100	1140308	1503875	50384289	100	-363567	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonaning asosiy aktivlari yil boshida 363567 ming so'mga, shu jumladan ishlab chiqarish asosiy aktivlari qiymati 444837 ming so'mga kamaygan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonaning asosiy aktivlari tarkibida salbiy o'zgarishlar yuz berdi. Ya'ni, ishlab chiqarish asosiy aktivlari ulushi yil boshiga nisbatan 0,17 foizga kamaydi.

Ushbu tahlilda yangilanish va tugatish (olib tashlash) koeffitsiyentlarini hisoblash kerak.

A) yangilanish omili:

$$K_{yan} = 1140308 \cdot 100 / 50384289 = 2,26\%$$

B) Tugatish koeffitsienti

$$K_{tug} = 1503875 \cdot 100 / 50747856 = 3,0\%$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, korxonada asosiy aktivlarni yangilashga yetarlicha e'tibor berilmayotgani aniq. Ya'ni korxonaning asosiy aktivlarining 84 foizi eskirgan deb hisoblanadi. Yangilash va tugatish koeffitsiyentlaridagi tafovutlar hajmi eski texnika va jihozlar xorijdan yuqori narxlarda sotib olinayotganidan dalolat beradi.

Asosiy aktivlarning texnik holatini tahlil qilish

Jadval № 4

Asosiy vositalar	Yil boshida				Yil oxirida			
	Balans qiymati	qoldiq qiymati	Amortizatsiya (Eskirish qiymati)	Eskirish darajasi %	Balans qiymati	qoldiq qiymati	Amortizatsiya (Eskirish qiymati)	Eskirish darajasi %
Ishlab chiqarish asosiy fondlari	50312436	22017920	28294516	56,2	49867599	21806421	28061178	56,3
Noshlab chiqarish asosiy fondlari	435420	229989	205431	47,2	516690	228925	287765	55,7
Jami	50747856	22247909	28499947	56,2	50384289	22035346	28348943	56,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonaning asosiy aktivlarining texnik holatida sezilarli o'zgarishlar bo'lmagan. Bu yerda, birinchi navbatda, asosiy aktivlarning eskirish koeffitsienti yil boshiga nisbatan kamayganini ko'ramiz. Ya'ni, yil boshidagi asosiy aktivlarning butun

summasi bo'yicha amortizatsiya normasi sanoat ishlab chiqarish aktivlarini hisobga olgan holda 0,1 foizga yangilandi.

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun raqamli iqtisodiyot joriy etilmoqda. [25]. Yangilash strategiyasining

elementlaridan biri korxonaning asosiy aktivlari harakatini tahlil qilishdir. Qabul qilingan asosiy vositalar, ularni qabul qilish jarayonini baholashda har doim ham o'z vaqtida ishga tushirilmaganligi sababli, kelib tushish koeffitsienti va korxonaning asosiy vositalarini ishga tushirish koeffitsientini farqlash va yangi ko'rsatkichni – immobilizatsiya koeffitsiyentini joriy qilish kerak. birlik o'rtasidagi farq va foydalanishga topshirilgan asosiy aktivlar qiymatining olingan asosiy aktivlar qiymatiga nisbati sifatida hisoblangan asosiy aktivlar koeffitsienti. [10].

Immobilizatsiya koeffitsienti olingan asosiy aktivlarning foydalanishga topshirilmagan qismini aks ettiradi, shuning uchun korxonada qo'yilgan kapitaldan daromad olmaydi. Korxonaning asosiy aktivlaridan foydalanish va yangilash strategiyasini shakllantirish uchun asos bo'lib, ularning faoliyati samaradorligini baholash hisoblanadi. [27].

Asosiy aktivlardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ob'ektiv ko'rsatkich ularning rentabelligi hisoblanadi. Asosiy aktivlarning rentabelligi - bu asosiy aktivlar tannarxi birligidan olingan daromad miqdorini tavsiflovchi murakkab ko'rsatkich. [15]. Korxonaning asosiy aktivlarining rentabelligiga quyidagi ko'rsatkichlar ta'sir qiladi: asosiy aktivlarning rentabelligi, ya'ni qo'yilgan kapitalning rentabellik darajasi, shuningdek, amortizatsiya normasi. Asosiy aktivlar rentabelligining ko'rsatkichi ushbu koeffitsiyentlarning o'zaro bog'liqligidir: sotishdan olingan daromad, asosiy aktivlarning faol faol qismining kapital unumdorligi, mehnat vositalarining faol qismidan foydalanish darajasi, asosiy aktivlarning faol qismining ulushi. ularning umumiy hajmida davr mobaynida belgilangan asosiy aktivlarning o'rtacha eskirish darajasi. [11].

Ushbu bog'liqlikni quyidagi matematik munosabatlar bilan ifodalash mumkin:

$$RAA = SD * Fd * K * AAFU + AN$$

Bunda: RAA - asosiy aktivlar rentabelligi, koeffitsient;

SD - sotishdan tushgan daromad, koeffitsient;

AAFU - asosiy aktivlar faol qismining ulushi;

AN - o'rtacha amortizatsiya normasi, koeffitsient.

Asosiy aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashda taklif etilayotgan formuladan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- har bir omilning korxonaning asosiy aktivlari rentabelligiga ta'sir qilish darajasini aniqlash;
- korxonaning asosiy aktivlaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi elementlarni aniqlash;
- mehnat vositalarining ishlash samaradorligini oshirish uchun xaziralarni aniqlash;
- o'rganilgan tendentsiyalardan kelib chiqib, butun korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini barqarorlashtirishga yordam beradigan asosiy aktivlarning rentabelligini oshirishga qaratilgan choratadbirlar majmuasini ishlab chiqish. [12].

Amortizatsiya siyosatini shakllantirishda shuni hisobga olish kerakki, faoliyatning moliyaviy natijalariga korxonaning yarim doimiy xarajatlarning bir qismi bo'lgan amortizatsiya to'lovlari miqdori ta'sir qiladi. Hozirgi vaqtda korxonalarning moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradigan amortizatsiyani hisoblash usulini tanlash muammosiga duch kelmoqdalar.

Faol asosiy aktivlarning (passivlarga nisbatan) xizmat qilish muddati nisbatan qisqa bo'lganligi sababli, tashqi muhitdagi o'zgarishlarni va uning asosiy aktivlarning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan kelajakdagi pul oqimlariga ta'sirini taxmin qilish mumkin. [28]. Ushbu texnika quyidagilarga imkon beradi:

- asosiy aktivlar qiymatini hisobdan chiqarishning turli variantlarini solishtirish;
- doimiy xarajatlarning bir qismi sifatida amortizatsiya ajratmalarini oshirishning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda amortizatsiya usulini tanlash. [10].

Asosiy aktivlarni almashtirishning maqsadga muvofiqligini asoslash bo'yicha takliflar va uslubiy yondashuvlar:

1. jamlangan amortizatsiya aniqlanadi - nafaqat jismoniy, ma'naviy, iqtisodiy eskirish natijasida, balki analitik, buxgalteriya eskirishi natijasida asosiy aktivlarning iste'mol qiymatining yo'qolishi.
2. asosiy aktivlar obyektini almashtirishning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Asosiy aktivlarni almashtirish faqat yangi asosiy aktivlar ob'ektining rentabelligi almashtirilgan asosiy aktivning rentabelligidan yuqori bo'lganda tavsiya etiladi. [14].

O'zbekistondagi barcha tizimlar raqamli shaklga o'tkazilmoqda. [19]. Innovatsion va raqamli iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xodimlar soni va texnologik jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. [18]. Shuningdek, ob'ektdan keyingi foydalanish to'g'risida qaror qabul qilish kerak, ularning xizmat muddatini oshirish uchun asosiy aktivlarning eskirishini kamaytirish choralarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. [9].

Xulosa va takliflar:

1. Tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, korxonalarda asosiy aktivlarni yangilash jarayoni va uni boshqarish bugungi kunda korxonalarimiz zamonaviy vazifalari, ya'ni investitsiyalar, modernizatsiya, rekonstruksiya, kapital qurilish va hokazolar bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

2. O'zbekistonda korxonalarimiz asosiy aktivlarning eskirish darajasining yuqoriligi va yangilanish darajasining pastligi. Korxonalar o'zlarining asosiy aktivlaridan foydalanish va yangilash bo'yicha yo'naltirilgan strategiyaga ega emaslar.

3. Korxonaning asosiy aktivlaridan foydalanish va yangilash samaradorligini baholashning yondashuvlari va usullari; yangilash asosiy aktivlaridan foydalanish va yangilash strategiyasini shakllantirish uchun bir qator vositalarni asoslash va sinab ko'rish.

4. Asosiy aktivlardan foydalanish va yangilash strategiyasini ishlab chiqish talablari va variantlari sanoat korxonalarining texnik bazasini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun ishlatilishi kerak.

5. O'rganilayotgan korxonalarimiz asosiy aktivlaridan samarali foydalanish va yangilanishiga, ularning asosiy aktivlaridan foydalanish va yangilash strategiyasi talablarini amalga oshirishda asosiy faoliyat yo'nalishlarini aniqlashga to'sqinlik qilayotgan muammolar.

Amortizatsiyani hisoblash usulini tanlash usuli sizga quyidagilarga imkon beradi:

➤ asosiy aktivlar qiymatini hisobdan chiqarishning turli variantlarini solishtirish;

➤ xarajatlarning bir qismi sifatida amortizatsiya ajratmalarini oshirishning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda amortizatsiya usulini tanlash. [9].

Ilmiy yangilik - bu sanoat korxonalarining asosiy aktivlarini yangilash strategiyasini shakllantirish bo'yicha uslubiy yondashuvlarni asoslash va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish. takliflarning yangiligini belgilovchi asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

➤ korxonaning asosiy aktivlarini yangilash strategiyasini ishlab chiqish talablarini asoslash;

➤ yangi ko'rsatkich bo'yicha taklif - asosiy aktivlarni harakatsizlantirish koeffitsienti, korxonada asosiy aktivlarning harakat jarayonini baholash;

➤ korxonaning asosiy aktivlari rentabellik ko'rsatkichi va ulardan foydalanishning keng, intensiv va integral ko'rsatkichlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslash;

➤ korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilash maqsadida asosiy aktivlarni eskirish usulini tanlash mezonini taklif qilish;

➤ umumiy amortizatsiyani hisoblash va asosiy aktivlarning yangi ob'ekti va almashtirilayotganining rentabelligini taqqoslash asosida korxonaning asosiy aktivlari ob'ektini almashtirishning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish. Amalda esa olingan natijalar sanoat korxonalarida asosiy aktivlarni yangilash va ulardan foydalanish strategiyasini shakllantirish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Fan va texnika yutuqlaridan foydalanish natijalarini amalga oshirish xalqaro savdo orqali bilvosita va bevosita boshqa mamlakatlarga tarqaladi. To'g'ridan-to'g'ri diffuziya fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalar jahon bozorida sotilganda va boshqa mamlakatlardan sotib olinganda sodir bo'ladi. Bilvosita diffuziya yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqilgan mamlakatning eksport ishlab chiqarish samaradorligi ortib, tovar sifati yaxshilanganda yuzaga keladi. [41]

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat qanchalik boy va kuchli bo'lsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish va investitsiya resurslaridan qanchalik oqilona va maqsadli foydalanish, yaxlit munosabatlar va moslashuv imkoniyatlaridan foydalanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. jahon bozori sharoitlariga. [8]

Adabiyotlar:

1. Шадрина, Г. В. Анализ финансово-хозяйственной деятельности: Учебник. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2021. — 461 с.
2. Экономика организации (предприятия): учебное пособие/ Т. К. Руткаускас [и др.]; под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. Т. К. Руткаускас. — 2-е изд., перераб. и доп. — Екатеринбург: Изд-во УМЦУПИ, 2018. — 260 с.
3. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. 20.12.2022
4. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). — 2023. — Т. 3. — №. 2. [View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS \(sciencesage.info\)](#)
5. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2023. — Т. 3. — №. 4. — С. 554-564.
6. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. — 2023. — Т. 8. — №. 5. [View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View](#)
7. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. — 2023. — Т. 4. — №. 04. — С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
8. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. — 2005. — Т. 4238. — С. 1922-1926.
9. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2022. — Т. 2. — №. 4. — С. 200-217.
10. Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. — 2022. — Т. 5. — №. 3.
11. Karomatovna M. J. Efficiency of introducing innovative approaches in higher education in uzbekistan //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. — 2022. — Т. 3. — №. 4. — С. 1266-1275.
12. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //БК 65.0501 А 43. — 2022. — С. 283.
13. Мусаева Ж. К. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ТАЪЛИМДА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ //Архив научных исследований. — 2022. — Т. 2. — №. 1.
14. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //БК 65.0501 А 43. — 2022. — С. 288.
15. Мусаева Ж. К. САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА АСОСИЙ КАПИТАЛДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ //Журнал Инновации в Экономике. — 2021. — Т. 4. — №. 6.
16. Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. — 2021. — Т. 9. — №. 12. — С. 1434-1441.
17. Karomatovna M. J. Economic thoughts in the works of alisher navoi and their role in the development of society //ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. — 2021. — Т. 11. — №. 1. — С. 1524-1531.
18. Мусаева Ж. К. Роль цифровой трансформации в развитии экономики Узбекистана. — 2021.
19. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. Информационная безопасность—важное условие цифровой экономики. — 2021.
20. Мусаева Ж. К. Тенденции развития цифровой экономики и образования в Узбекистане //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. — 2021. — С. 246-250.
21. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. INFORMATION SECURITY IS AN IMPORTANT CONDITION FOR THE DIGITAL ECONOMY //Тенденции экономического развития в XXI веке. — 2021. — С. 323-326.
22. Мусаева Ж. К., Алимова Д. Д. ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. — 2020. — Т. 2. — №. 1.
23. Мусаева Ж. К. Факторы развития наукоемкой цифровой экономики. «Проблемы и перспективы занятости в условиях развития цифровой экономики». Международная научно-практическая конференция. Самарканд, октябрь, 2021.
24. Мусаева Ж. К. Значение финансово-валютных операций в развитии экономики Узбекистана //Научно-практические исследования. — 2020. — №. 3-2. — С. 40-44.
25. Мусаева Ж. К. Цифровая экономика как залог будущего развития-" Цифровая экономика: новый Узбекистан через новые технологии, платформы и бизнес-модели Цифровая экономика: новый этап в развитии нового Узбекистана новыми технологиями"- Материалы междуна-роднойнаучно практической конференции //Ташкент: Тадикот. — 2020.
26. Мусаева Ж. К., Жумаева Д. Х. Особенности анализа основных фондов и инвестиций на предприятиях //Бенефициар. — 2019. — №. 52. — С. 7-10.
27. Мусаева Ж. К. РОЛЬ ФИНАНСОВО-ВАЛЮТНЫХ ОПЕРАЦИИ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. — 2019. — С. 152-156.
28. Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. — 2019. — №. 44. — С. 22-25.
29. Мусаева Ж. К., Халилова М. ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ ПРОТИВ ГМО В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА //БК 65.0501 А 43. — 2019. — С. 64.
30. Мусаева Ж. К. РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА //Интернаука. — 2019. — №. 9-1. — С. 76-78.
31. Мусаева Ж. К. ОСОБЕННОСТИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ //СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. — 2019. — С. 279-284.
32. Мусаева Ж. К. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СТИМУЛИРОВАНИЕ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ //Интернаука. — 2018. — №. 22-1. — С. 63-65.
33. Мусаева Ж. К. РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ //Инновационное развитие. — 2017. — №. 4. — С. 70-71.
34. Артикова Д. М., Юлдашева С. Н., Мусаева Ж. К. Роль предпринимательства, управления в совершенствовании экономического механизма хозяйствования //Економика і управління національним господарством. — 2013. — №. 9. — С. 65.



XORIJDA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNES KORXONALARI TASNIFI, ULARDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH HAMDA HISOBOTINI TUZISHNING XUSUSIYATLARI

Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

doktoranti, i.f.n, dotsent

+99897 270-10-00

E-mail: emuydinov@list.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 37

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.975>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

Kichik va o'rta biznes, tasniflash mezonlari, tadbirkorlik subyekti, soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi, hisobvaraqlar rejasi, hisob siyosati

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik va o'rta biznes korxonalarini xorijiy davlatlarda va O'zbekiston respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning obyektini sifatida ko'rib chiqiladi, ularning hozirgi kundagi holati va rivojlanish yo'nalishlari bayon qilinadi.

Kirish: Zamonaviy buxgalteriya hisobi kichik va o'rta biznesni samarali yuritishning zaruriy omili hisoblanadi. Milliy yoki xalqaro standartlar asosida tashkil qilingan va to'g'ri yo'lga qo'yilgan buxgalteriya hisobi kompaniya moliyaviy hisobotlarini aniqligi va dolzarbligini ta'minlash uchun uning barcha moliyaviy muomalalarini hisobga olib borish va nazoratda tutish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi: Oxirgi yillarda butun dunyoda mamlakatlar iqtisodiyotini o'sishiga kichik va o'rta biznesning ta'siri kuchayib bormoqda. 2024 yilning aprel oyiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalarini soni 401,3 ming tani tashkil qildi [9].

Ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotida yuqori o'sish suratlari ta'minlash, uni pasayishini oldini olish maqsadida kichik va o'rta biznes korxonalariga turli imtiyoz va preferensiyalar taqdim qilmoqdalar. Ularga soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish, maqbul soliq tizimini tanlash, hisobotlarni milliy yoki xalqaro standartlar asosida tayyorlash borasida huquqiy asoslarni yaratib bermoqdalar.

Maqolada O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida ham o'zining salmoqli o'miga ega bo'lib borayotgan kichik va o'rta biznes korxonalarining xususiyatlarini ularda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga ta'siri o'rganib chiqildi va ularni takomillashtirish bo'yicha fikrlar bildirildi.

Tadqiqod usullari: Maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqodning kuzatish, umumlashtirish, tizimlashtirish, to'plangan ma'lumotlarni qiyoslash va tahlil usullaridan foydalanish orqali o'rganilayotgan masalaga muallif tomonidan munosabat bildirildi.

Tadqiqod natijalari va ularning muhokamasi: Kichik va o'rta biznes atamasi to'g'risida dunyoda yagona tushuncha mavjud emas. Mazkur tushuncha xorijiy mamlakatlarda bir-biridan juda jiddiy farq qiladi. Har bir davlat uning mezonlarini avvalambor o'z iqtisodiyoti oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib belgilaydi.

Rus olimlari L. V. Koch va K. A. Kunevichlar Rossiya federatsiyasi va boshqa xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va uning mezonlarini tahlil qilib chiqdilar. Mualliflar bu holatda ularning ko'pida ikkita miqdoriy ko'rsatkich - band bo'lganlar soni va maksimal savdo hajmi qo'llanishini ko'rdilar [5].

D. V. Konishcheva o'zining ilmiy izlanishlarida korxonalarini kichik va o'rta biznes sohasiga mansubligini aniqlashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birlashtirgan kompleks yondashuvdan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Kichik biznes obyektini baholash uchun sifat ko'rsatkichlariga misollar sifatida kichik biznesning miqyosi, rahbar va xodimlar o'rtasida yagona boshqaruv aloqasining mavjudligi, bevosita rahbar tomonidan amalga oshiriladigan marketing faoliyati va boshqalarni keltirish mumkin. O'rta biznes uchun esa muallif biznes yuritishning hududiy miqyosga egaligi, boshqaruv tuzilmasida

to'rttagacha boshqaruv darajasi, innovasion, texnologik faoliyatda rahbarning yetakchiligi va boshqalarni ajratib ko'rsatadi [4].

Rossiya Federatsiyasida xodimlarning o'rtacha soni 15 kishi va yillik tushum qiymati 120 mln.rubl bo'lgan korxonalar mikro korxonalar; xodimlarning o'rtacha soni 16-100 kishi va yillik tushum qiymati 800 mln.rublgacha bo'lgan korxonalar kichik korxonalar; xodimlarning o'rtacha soni 101-250 kishi va yillik tushum qiymati 2 mlrd.rubl bo'lgan korxonalar o'rta korxonalar sifatida tasniflanadi [8].

Yevropa ittifoqida kichik va o'rta korxonalar o'rtacha soni 2003 yili qabul qilingan va hozirga qadar xarakterda. Tadbirkorlik subyektini kichik va o'rta biznesga mansubligi mezonlari sifatida xodimlar soni, sotish xajmi va balans valyutasi tan olingan.

AQSHda kichik korxonalar jami korxonalar sonining 91,6 foizini, Fransiya - 98,4 foizini, Yaponiyada esa 77 foizini tashkil etadi. AQSHda sanoat mahsulotlari hajmining 36,6 foizi, Fransiya 38,8 foizi, Yaponiyada esa 35,4 foizi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi [6].

Xitoy Xalq Respublikasida kichik va o'rta korxonalar deganda Xitoy Xalq Respublikasida belgilangan tartibda tashkil yetilgan va ishchi kuchi va biznes jihatidan nisbatan kichik bo'lgan korxonalar, jumladan, o'rta korxonalar, kichik korxonalar va mikro korxonalar tushuniladi.

Qo'shma Shtatlarda kichik biznesni tasniflash mezonlari 1160 ta kichik sektorlar bo'yicha farq qiladi. Lekin ularning barchasida estiborga olinadigan mezon bu: xodimlar soni, yillik daromad xajmi va aktivlar qiymati hisoblanadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 10.02.2023 yildagi PF-21-son Farmoni tadbirkorlik sub'yektlarini kichik, o'rta va yirik biznesga ajratish mezonlarini belgiladi.

Farmonning 1-a bandiga ko'ra

- yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT);
- mikrofirmalar - jismoniy shaxslar tomonidan ta'sis etilgan, jami daromadi 1 kalendar yil davomida 1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik sub'yektlari;
- kichik korxonalar - jami daromadi 1 kalendar yil davomida 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan sub'yektlar hamda yuridik shaxslar tomonidan ta'sis etilgan mikrofirmalar kichik tadbirkorlik sub'yektlari bo'lib hisoblanadilar.

2022 yili Respublikamizda korxonalar va tashkilotlar tarkibida kichik biznesning ulushi 86% dan ortiqni va mamlakat YAIMni 51,8 foizni tashkil etgan [7].

Xalqaro audit amaliyoti to'g'risidagi nizom maqsadlari uchun kichik korxonalar deb yuritiladi, agar:

a) kompaniyaga egalik qilish va boshqaruvni amalga oshirish kam sonli shaxslar (ko'pincha bir kishi qo'lida) amalga oshiriladigan bo'lsa; va

b) unga quyidagi xususiyatlardan biri yoki bir nechtasini qo'llash mumkin bo'lsa:

(i) daromad olish manbalarining sonini cheklanganligi;

(ii) buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tizimini qo'llayotganligi; yoki

(iii) cheklangan doiradagi ichki nazoratni mavjudligi va korxonalar rahbariyatining bunday nazoratni chetlab xarakter qilishi mumkinligi.

O'rta biznes kompaniyalari kichik biznesga nisbatan avvalambor o'zlarining qamrov zonalarini bilan farq qiladi. Ular odatda katta mijozlar auditoriyasiga xizmat ko'rsatishga qodir bo'lgan butun tarmoqni o'z ichiga olishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ular o'z ishlarini bir shaharda olib borishlari shart emas.

O'rta biznes korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. O'zgaruvchan bozor sharoitlariga sekin moslashish.

2. Xizmatlar iste'molchilariga tovarlar yoki xizmatlar sifatini oshirishga e'tibor qaratish.

3. Jami daromadi 1 kalendar yil davomida 10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan kompaniyalar.

O'rta kompaniyalarga ega bo'lgan tadbirkorlar kichik biznes egalari qaranganda ko'proq miqdorda pul ishlab topishadi. Ular allaqachon bozorda o'z o'rniga, brendiga va ma'lum miqdordagi sodiq xaridorlariga hamda faoliyatini kengaytirish borasida ko'proq imkoniyatlarga ega. Qoidaga ko'ra kamida 2-3 filialga ega bo'lgan tarmog'ni ifodalaydilar. O'rta biznes korxonasi egasi mustaqil tarzda filiallarni ochishi yoki franshizani ishlab chiqishi va sotishi mumkin.

O'rta biznes talabiga javob beruvchi korxonani birdaniga ochish yengil ish emas. Bunday korxonalarini barpo qilish uchun ham tashkiliy ham moliyaviy jihatdan jiddiy tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish lozim bo'ladi. O'rta biznes korxonalarini boshqarish oson emas, bir kishi bu vazifani bajara olmaydi. Aksariyat xolatlarda mulk egasi boshqaruv va hisob yuritish vakolatlarini yollanma xodimlarga topshiradi. Bunday korxonalarda menejment samaradorligini oshirish uchun boshqaruv ning avtomatlashtirilgan tizimini joriy yaxshi natija beradi..

Faoliyat yo'nalishlariga kelsak, tadbirkorlikning o'rta biznes shakli tarmoq savdo kompaniyalari, qurilish tashkilotlari, yirik tibbiyot markaz-lariga xosdir. Jahon iqtisodiyotida davlatga barcha daromadlarning uchdan bir qismini olib keladigan eng katta rol o'ynaydigan o'rta tashkilotlardir. Biroq, xukumat tomonidan ularga nisbatan soliq imtiyozlari yoki boshqa qo'llab-quvvatlovchi choralarini kamdan kam xollarda qo'llaniladi.

Kichik biznes o'zining serqirra xususiyatlarining mavjudligiga ko'ra ularda buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni tashkil qilish va yuritishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy omillarga ega:

√ xo'jalik muomalalarining kamligi;

√ xodimlar sonining ko'p emasligi;

√ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va (yoki) ko'rsatilayotgan xizmatlar sonining kamligi;

√ xujjatlar aylanishi grafigining soddaligi va kamchiqimligi;

√ buxgalteriya hisobi va ishchi hisobvaraqlar rejasining soddalashtirilgan usulidan foydalanishi mumkinligi;

Muallifni amaliyotchi auditor sifatida kichik hamda o'rta biznes korxonalariga professional xizmatlar ko'rsatish jarayonida ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, hamda samarali ichki nazoratni yo'lga qo'yish borasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

- ko'p hollarda korxonada buxgalteriya bo'limi tashkil qilinmay buxgalteriya hisobini bu borada maxsus bilimlarga ega bo'lmagan mulk egasi tomonidan yuritilishi yoki,

- buxgalteriya tashkil qilinsada unga malakali mutaxassis yollash o'rniga arzon xodimini jalb qilish amaliyotini keng tarqalganligi;

- kichik korxonalar bosh hisobchisi faoliyatida xizmat vazifalariga to'g'ri kelmaydigan ishlar (kadrlar xujjatlarini yuritish, huquqiy masalalar bilan shug'ullanish, loyihalar tayyorlash...) ni bajarib borishi;

- mulk egalari buxgalteriya hisobi faqat soliqlarni to'g'ri hisoblash va tegishli idoralarga hisobotlar tayyorlash hamda taqdim qilish uchun zarur degan nuqtai nazar ustivorligi.

- kichik biznes uchun sodda va nisbatan qiymati yuqori bo'lmagan qulay kompyuter dasturlarni mavjudligiga qaramay unga mablag' ajratishga istakning yo'qligi;

- korxonalar rahbari tomonidan bank xujjatlaridan tashqari boshqa xo'jalik muomalalarini xujjatlashtirishga ikkinchi darajali deb qarashning mavjudligi va ularni yoppasiga hisobga olishga yetarli e'tibor berilmasligi;

- hisob siyosatini muhimligiga yetarli e'tibor berilmasligi;

- buxgalteriya hisobidan kichik korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish, uning faoliyati samaradorligini baholash, kreditorlar oldidagi majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish va debitorlik qarzlarni undirish muddatlarini nazorat qilish imkoniyatidan to'liq foydalanmaslik vvk.

Kichik korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy xususiyati kichik korxonalar uchun buxgalteriya hisobi va hisobot berishning soddalashtirilgan algoritmilaridan foydalanish imkoniyatidir, ya'ni buxgalteriya hisobini tashkil etishda nosta'ndart yondashuvni qo'llanishi mumkinligi hisoblanadi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish bir qator me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining 9-moddasida kichik tadbirkorlik sub'yektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi deb qayd etilgan.

Kichik korxonalar o'rta va yirik korxonalar kabi umumiy tartibda buxgalteriya hisobini yuritishlari mumkin.

Ammo buni osonlashtirish uchun qonunda ularga soddalashtirilgan tizim yordamida buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyati berilgan [3].

Kichik biznes korxonalar tomonidan buxgalteriya hisobini umumiy tartibda yoki soddalashtirilgan tartibda yuritishni tanlashiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- korxonaning ichki imkoniyatlarini mavjudlik darajasi;

- boshqaruv qarorlarini asoslash, ularni tayyorlash va qabul qilish uchun tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida sifatli, to'liq, ishonchli va o'z vaqtida ma'lumot olish zarurati;

- kichik biznes sub'yektini unga raqobatchi bo'lgan kompaniyalar orasidagi o'rnini aniqlash muhimligi;

- korxonadan haqi mavjud bo'lgan kontragenlar hisobini yuritishning ahamiyatli tarzda lozimligi.

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini qo'llashda kichik xo'jalik yurituvchi sub'yektga buxgalteriya hisobining qo'llanilayotgan registrlarini o'z faoliyati xususiyatlariga muvofiq qo'llash olishiga ruxsat beriladi. Lekin bunda u quyidagi talablarga rioya qilishi lozim:

- buxgalteriya hisobining yagona metodologiyasiga, ikki yoklama yozuv tamoyiliga;

- analitik hisob bilan sintetik hisob ma'lumotlarining o'zaro bog'langanligiga;

- barcha xo'jalik muomilalarini hisob registrlarida yoppasiga aks ettirilishiga;

- hisobning boshlangich xujjatlariga asoslanib yuritilishiga;

- boshlangich xujjatlar ma'lumotlarining moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ko'rsatkichlar bo'yicha yig'ib borilishiga va tartiblashtirilishiga.

Kichik korxonalarda buxgalteriya hisobining yuritilishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- barcha xo'jalik muomilalarini tegishli boshlangich xujjatlar tuzish orqali yoppasiga xujjatlashtirish;

- boshlangich xujjatlardagi ma'lumotlarni hisob registrlariga kiritish;

- moliyaviy hisobotlarni tuzish.

Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobini yuritishning tavsiya etilgan soddalashtirilgan usulining eng katta kamchiligi yuqorida aytib o'tganimizdek uni hisobni yuritishni standart kompyuterlashtirilgan tizimiga moslashtirilmaganligida hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritish uchun murakkab dasturiy mahsulotlardan foydalanish kichik biznes uchun oqilona yechim hisoblanmaydi. Chunki, aksariyat holda, bunday korxonalar mazkur dasturiy ta'minotni sotib olish uchun zarur resurslarga ega emas. Bundan tashqari ular ko'p

bosqichli buxgalteriya hisobini qo'llashga qiziqmaydilar ham va unga hojat ham yo'q. Chunki, qonunda belgilab qo'yilganidek xususiy tadbirkor o'ziga qarashli korxonada buxgalteriya hisobini o'zi yuritishi mumkin. Shuning uchun amalda, ko'plab tadbirkorlar buxgalteriya hisobini o'zlariga mustaqil ravishda amalga oshiradilar va kamdan-kam hollarda yuqori malakali mustaqil buxgalter xizmatlariga murojaat qilishadi. Ushbu turdagi kichik biznes tashkilotlari uchun IC-Tadbirkor, IS-Firmani boshqarish, IS-Savdo va IS- Soddalashtirilgan kabi bir nechta samarali yechimlari ishlab chiqilgan. Masalan, IC-Tadbirkor dasturiy ta'minotida dasturni ishlab chiqqan kompaniya ikkita rejimni taqdim etgan: buxgalteriya hisobi va boshqaruv. Ularning interfeyslari foydalanuvchi ishlayotganda juda qulay bo'ladigan tarzda tuzilgan. Buxgalteriya hisobi rejimida tashkilotning buxgalteriya hisobi va soliqlar tortish funksiyalari ko'rinadi, boshqaruv rejimi esa faqat biznes jarayonlarini boshqarish uchun mo'ljallangan.

Kichik biznes uchun IC-Tadbirkor dasturiy ta'minotda quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashish (savdo-sotiq hujjatlari, shartnomalar, pudratchilar, xamkorlar va tovarlar bo'yicha hisobotlar, narxlar);
- masofadan turib korxonaning milliy va xorijiy valyutadagi hisob raqamlar orqali hisob-kitob muomalalarini amalga oshirish;
- kassa va ish haqi muomalalari hisobini yuritish;
- davlat tomonidan belgilangan hisobotlarni shakllantirish;
- soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash va ularni elektron tarzda

tegishli idoralarga jo'natish.

Dasturga yana bir nechta xizmatlar kiritilgan:

- tafsilotlarni avtomatik ravishda to'ldirish, shartnoma taraflarini tekshirish;
- bank tashkilotlari, valyuta kurslari ma'lumotlar bazasini yuklash;
- soliq xavfini baholash;
- eng maqbul soliq variantini tanlashga yordam beradigan xizmatlar.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi odamlar faoliyatining barcha turlariga, shu jumladan buxgalteriya jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobi fan va faoliyat yo'nalishi sifatida so'nggi o'n yilliklarda ma'lumotlarni uzatish va saqlash texnologiyasidagi yangiliklar bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ma'lumot to'plash jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi, uni saqlash, qayta ishlash tezligi va hajmini hamda axborot sifati sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Maxsus dasturlar orqali ofisdan bank hisob raqamini boshqarish, masofada turib shartnoma tuzish, ishonchnoma jo'natish, shet-fakturani tasdiqlash, solishtirma dalolatnomalar tuzish kabi qulayliklar hozir hychek bir kichik yoki o'rta korxonaga rahbari yoki buxgalterini ajablantirmaydi. Yaqin o'tmishda bular rahbarlar va hisob xodimlari uchun orzu edi.

Xulosa

Mahalliy va xorijiy tajribani o'rganish shuni, kichik va o'rta biznes korxonalarida zamon va qonun talablariga mos keladigan buxgalteriya hisobini, samarali ichki nazoratni tashkil qilish va uni yuritishni takomillashtirish hamda sifatli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asosli moliyaviy hisobotlarni olishga erishish bir qator tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Birinchidan, rivojlanishning xozirgi bosqichida mahalliy kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish masalalarida mustaqillikka erishgan bo'lganlariga qaramay, ular soddalashtirilgan buxgalteriya tizimini yuritishda amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan umumiy tamoyillar doirasida bir qator qoidalarga amal qilishlari kerak. Buxgalteriya xizmatini yuqori saviyada ishlashi uchun zarur bo'lgan shartlardan biri mazkur kichik biznes

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2.02.2023 yil sanasidagi PF-21-son Farmoni
2. Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Prezidentining 2023 yil 15 noyabrda PQ-366-sonli qarori

xususiyatlarini hisobga olgan **hisob siyosatiga ega bo'lishlik** hisoblanadi. Kichik korxonalar ikkita alohida - buxgalteriya hisobi va soliq hisobi uchun- hisob siyosatini yaratishi ham mumkin.

Bunda kichik biznes korxonasi hisob xodimi quyidagi qoidalarni bilishi lozim. Jumladan, hisob siyosatini o'zgartirish uslubiyoti izchillik faraziga asoslanadi: hisob siyosati bir hisobot davridan ikkinchisiga izchil qo'llanilishi kerak. Ikkinchi asosiy qoida - bu hisobot davri oralig'ining natijasidir, shuning uchun hisob siyosatidagi barcha o'zgarishlar faqat yangi hisobot davrining boshidan boshlab amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, tegishli, malakali va ob'yektiv shakllangan hisob siyosati kichik korxonaga uchun buxgalteriya hisobi samaradorligining eng muhim jihati hisoblanadi.

Ikkinchidan, har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yektning buxgalteriya siyosatining asosiy elementi, bu- buxgalteriya hisobi va hisobotning to'liqligi, o'z vaqtida va ishonchligiga qo'yiladigan talablari asosida ishlab chiqilgan sintetik va analitik hisoblarni o'z ichiga olgan ishchi hisobvaraqlar rejasidir. Bugungi kunda kichik biznes korxonalarida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobga olish uchun mulkchilik shakli, tarmog'i va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun mo'ljallangan va ikki yoqlama yozuv usuli bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan Namunaviy hisobvaraqlar rejai va uni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalardan foydalanadilar. Bu o'rta biznes korxonalarida uchun qiyinchilik tug'dirmasada, kichik korxonalarda mazkur korxonaga faoliyati ning hususiyatlari va unda qo'llanilayotgan soliq tizimini hisobga olgan holda soddalashtirilgan ishchi hisobvaraqlar rejasini tuzib chiqish ko'proq foydali bo'ladi.

Uchinchidan, «Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» nomli Buxgalteriya hisobining 20-sonli milliy standartini tubdan yangilash lozim. Chunki, mazkur standartda aks ettirilgan xujjat shakllari allaqachon eskirgan va amaliyotda qo'llanilmayapti. Hozirda kichik biznes korxonalarida uchun ishlab chiqilgan buxgalteriya dasturlarida tarmoqqa moslashtirilishi mumkin bo'lgan va kompaniyaning ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan bir qator xujjatlar ishlab chiqilgan.

To'rtinchidan, kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini aniq yuritilishi, soliqlarni to'g'ri hisoblanishi va moliyaviy hisobotlarni asosli tuzilishini ta'minlash uchun xukumatning kichik biznesni qo'llab quvvatlash maqsadida ishlab chiqayotgan me'yoriy xujjatlarida buxgalteriya hisobini yuritish uchun sotib olinayotgan zamonaviy, akkreditatsiyadan o'tgan dasturlarni qiymatini to'liq yoki qisman qoplab berish choralarini nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi

Beshinchidan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi qonunining "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" deb nomlangan 25-moddasiga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar buxgalteriya balansidan hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan iborat faqat yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi. Lekin, bu borada shuni aytish lozimki, bu ikkala hisobot shakli yirik kompaniyalar tomonidan rasmiylashtiriladigan hisobot shakllari hisoblanadi. Farqi shundan iboratki, kichik korxonalar 010 dan boshlanib 940 da tugaydigan balans satrlarini oz sonli qismini to'ldiradilar. Xalqaro amaliyotda, va ayniqsa Kichik biznes uchun ishlab chiqilgan Moliyaviy hisobotning halqaro standartlarida kichik biznes korxonalarida uchun hisobot shakllarining soddalashtirilgan usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqodchi tomonidan dissertatsiya ishida bu borada jahon tajribasini o'rgangan holda faoliyatida MHMS ni qo'llayotgan mahalliy kichik biznes korxonalar uchun mazkur hisobotlarning soddalashtirilgan shaklini ishlab chiqish va tavsiya etish rejalashtirilgan.

3. «Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» nomli Buxgalteriya hisobining 20-sonli milliy standarti
4. *Koniuyeva D. V. Kriterii opredeleniya razmerov malogo i srednego biznesa v Rossii i za rubejom // Molodoy uchenyy. 2018. № 9 (195). S. 83—86*
5. *Kox L. V., Kunevich K. A. Kriterii omeneniya predpriyatiy k kategorii malyx // Vestnik ZabGU. 2017. № 3*

6. Малы и sredniy biznes kak faktor ekonomicheskogo rosta Rossii / In-t ekon. politiki im. Ye.T. Gaydara. – M. : Izd-vo Instituta Gaydara, 2019. – 308 s. : il. – (Nauchnyye trudy / Institut ekonomicheskoy politiki imeni

7. Ye.T. Gaydara; № 178P)

8. Mirzayev Q.J., B.Sh.Mirzayev “Kichik biznesni boshqarish” Ma’ruzalar matni, Toshkent, 2019 y

9. Pletnev D.A i dr. Kriterii maloga srednego biznesa v raznykh stranax i yego masshtaby: sravnitelnoye issledovaniye. Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta, 2021, № 6 (452), Ekonomicheskiye nauki, Выр. 73, s 147-161

10. https://ec.europa.eu/growth/smes/sme-definition_en

11. <https://uz.kursiv.media/2024-04-27/kolichestvo-malyh-predpriyatij-v-uzbekistane-snizilos-do-4013-tys>

**QO'QON UNIVERSITETI
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

11 / 2024

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2024-yil 26-iyun.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma rakami №. Baxosi shartnoma asosida.
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida
chop etildi.

